

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
Филология факультети
Инглиз тили ва адабиёти кафедраси

«Ҳимояга рухсат этилсин»

Факультет декани

_____ А.А.Хайдаров

« _____ » _____

4-курс талабаси Islom Samandarov нинг

**«INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SEGMENT FONETIK VOSITALAR VA
ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI» мавзусидаги**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

5220100-Филология (инглиз тили) таълим йуналиши

Илмий рахбар:

Такризчи:

Бухоро – 2016

MUNDARIJA

KIRISH	2-4
---------------------	------------

I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SEGMENT FONETIK VOSITALAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

1.1. Unli tovushlar va ularning uslubiy xususiyatlari	7-11
1.2. Undosh tovushlar talaffuzi bilan bog'liq uslubiy xususiyatlar..	11-15
1.3. Tovush o'zgarishlari va tovush takrori bilan hosil bo'ladigan konnotativ ma'nolar	15-24

II BOB. SUPERSEGMENT FONETIK VOSITALARDA IFODALANGAN KONNOTATIV MA'NOLAR.

2.1. Intonatsiya – supersegment fonetik vosita va uning uslubiy xususiyatlari.	25-43
2.2. Pauzaning fonostilistik imkoniyatlari	43-58
2.3. Urg'uning semantik – grammatik va uslubiy xususiyatlari.....	58-69

XULOSA	70-71
---------------------	--------------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	72-74
---	--------------

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tilimiz ravnaqi haqida fikr yuritib: “Maʼlumki oʻzlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar oʻrtasidagi ruhiy - maʼnaviy bogʻliqlik til orqali namoyon boʻladi. Til — millatning ruhidir” degan edi¹.

Darhaqiqat, til oʻz xususiyatga ega boʻlgan, yaʼni nominativ, kommunikativ va ekspressiv vazifalarni bajarish qudratiga ega boʻlgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

Tilning atash va aloqa qilish vazifasi ingliz va oʻzbek tillarida ancha oʻrganilgan, ammo uning emotsional — ekspressiv xususiyatlarini oʻrganish har ikkala tilda ham yetarlicha tadqiq etilmagan.

Jahon tilshunosligida uslubiyat masalalari oʻz yechimini topgan, biroq fonetik vositalardagi nutqiy taʼsirchanlik, ulardagi uslubiy xususiyatlar qiyosiy planda oʻrganilgan emas. Bu borada bir necha ilmiy ishlar yozilganligiga qaramasdan badiiy nutqda fonetik vositalar va ularning taʼsirchanligini oshirishdagi vazifalarni belgilash, bu sohada soʻz sanʼatkorlarning oʻziga xos uslubi manerasini belgilash ushbu malakaviy bitiruv ishining dolzarbligini belgilaydi.

Malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsad va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi badiiy nutqda fonetik vositalarning nutqiy taʼsirchanligini belgilash va fonetik vositalarda ifodalangan konnotativ maʼnolarni ochib berishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Ingliz va oʻzbek tillarida konnotativ maʼno va uning nutqiy taʼsirchanligini belgilovchi xususiyatlarni koʻrsatuvchi ilmiy ishlarni oʻrganib chiqish va ularga munosabat bildirish;
- Ingliz va oʻzbek tillarida nutq tovushlari talaffuzi va yozilishi bilan bogʻliq uslubiy xususiyatlarni belgilash;
- Nutq jarayonida tovush oʻzgarishlari bilan sodir boʻladigan uslubiy hodisalar va ularning badiiy nutqdagi rolini ochib berish;

¹ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat yengilmas kuch. - T.; “Maʼnaviyat”, 2008. –B.83.

-Ingliz va o‘zbek tillarida tovush takrori bilan sodir bo‘ladigan nutqiy o‘zgarishlarni badiiy asardan olingan misollar asosida yoritib berish;

- So‘z san‘atkorlarining fonetik vositalardan o‘z asarlarining ta‘sirchanligini oshirish maqsadida foydalanishlarini ko‘rsatish;

- Intonatsiyada konnotativ ma‘noning ifodalanish darajasini belgilash;

- Pauzaning fonostilistik imkoniyatlarini ochib berish;

- Urg‘u bilan bog‘liq uslubiy xususiyatlarni ko‘rsatish;

- Har ikkala tilda segment va supersegment fonetik vositalar bilan sodir bo‘ladigan “qo‘shimcha ma‘no”larni qiyosiy tahlil qilish;

Malakaviy bitiruv ishining metodologik asosi va tadqiq usullari.

Olamdagi narsa va hodisalar o‘zaro bog‘liq va doimiy rivojlanishda ekanligini e‘tirof etuvchi dialektik falsafa malakaviy bitiruv ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Ishni yozishda tilshunoslikning tasviriy, semantik – stilistik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Malakaviy bitiruv ishining yangiligi. Tilda mavjud denotativ va konnotativ ma‘nolar taxlili va tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar o‘qib o‘rganildi va ularga munosabat bildirildi;

- Ingliz va o‘zbek tillarida nutq tovushlarining talaffuzi va yozilishi bilan bog‘liq uslubiy xususiyatlar belgilandi;

- Tovush o‘zgarishlari bilan sodir bo‘ladigan konnotativ ma‘nolar va ularning badiiy tasvirdagi vazifasi ko‘rsatildi;

- Ingliz va o‘zbek tillarida takror stilistik figuralari va undan so‘z san‘atkorlarining foydalanish usullari va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilindi;

- Intonatsiyada konnotativ ma‘noning ifodalanish darajasi belgilandi;

- Pauzaning fonostilistik imkoniyatlari ochib berildi;

- Urg‘ular bilan bog‘liq uslubiy xususiyatlari ko‘rsatildi.

- Har ikkala tilda fonetik vositalarning nutqiy ta‘sirchanligi ingliz va o‘zbek adiblarining asarlaridan olingan misollar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Malakaviy bitiruv ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv ishidan uslubiyat, ayniqsa, fonetik uslubiyat bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar nazariy manbaa sifatida foydalanishlari mumkin. Ish matnidan bakalavriyat ta'lim yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar kurs ishi, tezis va ilmiy maqolalar yozishda, shuningdek, litsey, kollej va maktab o'quvchi va o'qituvchilari keng foydalanishlari mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi va xajmi. Bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning umumiy hajmi 74 sahifani tashkil etadi.

I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SEGMENT FONETIK VOSITALAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

1.1. Unli tovushlar va ularning uslubiy xususiyatlari

Tilshunoslik tarixida tovush sistemasini o'rganish ikki davr bilan izohlanadi: 1) "fonema" tushunchasi paydo bo'lgunga qadar bo'lgan davr; 2) fonologiya, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda fonema

nazariyalarining yuzaga kelish davri. Birinchi davrda fonema va tovush, baʼzan harflar oʻrtasidagi farq aniq koʻrsatilmay, tovushlarning talaffuzi soʻzlardagi u yoki bu holatda etimologik oʻzgarishlarga uchrashiga koʻproq eʼtibor berilgan.

Fonologiya davrida ular oʻrtasidagi farq oydinlashtirildi va tovushlar, keyinchalik boʻgʻin, urgʻu va intonatsiyaning tildagi funktsional tomonlari oʻrganila boshladi. “Fonema” tushunchasini birinchi boʻlib taklif etganlar qatorida umumiy fonolognyaning asoschisi I.A.Boduen de Kurtene, uning shogirdi I.V.Krushevskiy, fransuz olimi P.Passy, ingliz tilshunosi G.Suit, shveysariyalik mashhur tilshunos F. de Sossyur va rus olimi P. Ularning nomlari bor¹.

“Fonema” atamasi va tushunchasiga chuqur asos solgan olim I.A.Boduen de Kurtenedir.

Hozirgi davr tilshunosligida fonemaga berilgan yuzlab taʼriflar mavjud. Bu taʼriflar koʻpincha fonologiyaga ananaviy (traditsion) va struktural yoʻnalishlar oʻrtasidagi qarashlar bilan izohlanadi. Bu qarashlarni oʻrganib chiqib, biz fonemaga quyidagicha taʼrif berishni maqbul topdik: fonema — tildagi maʼnodor birliklar boʻlmish soʻz va morfemalarni tashkil etuvchi va ularni farqlash uchun xizmat qiluvchi, tilning eng kichik, oʻzi mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan birligidir.

Tildagi maʼnodor birliklar — soʻz va morfemalarni tashkil etish va ularni farqlash uchun fonemalar til sistemasida bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilishi zarur. Fonemalar oʻrtasidagi bunday qarama-qarshiliklar fonologik oppozitsiyalar deb yuritiladi².

Tildagi har bir fonema, avvalo, boshqa fonemalardan nima yordamida farqlanishi bilan izohlanadi. Shunga koʻra, “har bir tilning barcha fonemalari butun bir qarama-qarshiliklar sistemasini tashkil etadi va unda har bir aʼzo alohida fonema yoki ularning guruhi sifatida turli qarama- qarshiliklar turkumi

¹ Леонтьев А. А. Возникновение понятия фонемы (обзор отечественной и зарубежной литературы). Проблемы фонологии и морфонологии. Обзоры. М. 1975. -С. 7.

² Bu taʼriflar A. A. Реформатский fiklariga asoslangan: Введение в языковедение. М., 1967. -С. 211.

orqali aniqlanadi”¹. Bu esa, dialektikaning qarama-qarshiliklar qonunini eslatadi².

Yana bir masalani izohlab o‘tish lozim: bu nutqning fonetik bo‘linishidir. Odatda, nutqning fonetik jihatidan mayda bo‘laklarga bo‘linishni segmentatsiya (inglizcha “bo‘linish”) deyiladi. Har bir bo‘lingan bo‘lak segment deb yuritiladi. Nutqning fonetik bo‘linishida yirik segment ibora (fraz) hisoblanadi. Fraz, o‘z navbatida, mayda segmentlarga — takt, bo‘gin va tovushlarga bo‘linishi mumkin. Shu sa- babli, eng kichik segment — tovushga to‘g‘ri kelganidek, uni tildagi so‘zlarni farqlovchi fonema (“segmental fonema”) ga qiyos etiladi. Boshqa “fonetik birliklar supersegment vositalar (bo‘g‘in, urg‘u, intonatsiya) deyilib, ular ma‘noni ajratish xizmatini bajarsa, fonologiyada sillabema, aktsentema va intonema deb ataladi.

Yuqoridagilar asosida fonetik birliklar (tovush, bo‘g‘in, urg‘u, intonatsiya) bilan fonologik birliklar (fonema, sillabema, aktsentema, intonema) o‘rtasida ma‘lum munosabat o‘rnatiladi.

Segmental fonetika va fonologiyada adabiy til fonemalar sistemasini eksperimental (artikulyatsion-akustik) va fonologik tekshirish bo‘yicha ko‘pgina vazifalar amalga oshirildi. Uzbek tili vokalizmining boshqa turkiy tillar unilari sistemasidan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanishi oydinlashdi. Konsonatizm sistemasi ham artikulyatsion-akustik va fonologik jihatdan o‘rganildi. Biroq hali fonemalarning sintagmatik xususiyatlari, ularning kombinator va pozitsion o‘zgarishlari batafsil yoritilganicha yo‘q. Fonemalarni paradigmatic jihatdan tekshirish ular o‘rtasidagi oppozitsiyalarni to‘la aniqlashga olib kelsa, sintagmatik tomondan qarash esa faqat distributiv usulga asoslanib, fonemalar artikulyatsion-akustik xususiyatlarining o‘zgarishlarini yetarlicha aniqlab bermaydi. Bu o‘rinda eksperimental tekshirish natijalaridan foydalanish talab etiladi.

Fonemalarning bir-biri bilan birikuvida (odatda, uni “fonotaktika” deb ataladi) ularning fonologik va fonologik bo‘lmagan belgilarining taqsimoti,

¹ Щерба Л. В. Фонетика французского языка М., 1957. -С. 20.

² Дialeктическое противоречие, М., Политизад, 1979

urgʻu va boʻgʻin strukturasi bilan munosabati masalalarini segment va supersegment (prosodik) birliklarning oʻzaro aloqasi borasida chuqur oʻrganmoq lozim. Boʻgʻin strukturasi nazariy masalalarini fonetik va fonologik aspektlarda oʻrganishda eksperimental tekshirish natijalariga asoslanmoq lozim. Uzbek tilida soʻzlarning fonetik va fonologik strukturasi ilmiy tadqiq qilish — segment va supersegment vositalarining oʻzaro bogʻlanishini ochib beruvchi kalitdir.¹

1.1. Unli tovushlar va ularning uslubiy xususiyatlari

Tildagi barcha yaruslar bir-biri bilan uzviy aloqada boʻlgani kabi, fonetika va stilistika oʻrtasidagi bogʻlanish tufayli fonostilistika paydo boʻlgan². Fonetik vositalarda ifodalanayotgan konnotativ maʼnoning jozibadorligi tilning turli sathlarida oʻzaro aloqadorlikda namayon boʻlganligi sababli ularda uslubiy imkoniyatlar katta boʻladi. Odatda, tildagi biror xususiyat leksik va grammatik jihatdan toʻla namayon boʻlmasa, fonetik tomondan ekspressiv shakllantirish natijasida toʻldiriladi. Konnotativ maʼno komponentlarini tashkil qiluvchi boʻyoqlar fonetik vositalarda kuchli ifodalanadi:

1. Nutq tovushlarining turli xil talaffuzi bilan bogʻliq konnotativ maʼnolar ingliz tilida ham, oʻzbek tilida ham tovush qiyofasini oʻzgarishi, tovush ortirilishi yoki tushishi, alliterasiya orqali namayon boʻladi.
2. Soʻzda tasdiq yoki inkorni intonasiya orqali ifodalash.
3. Soʻzdagi belgi (miqdor) darajasining kuchliligini bildiruvchi tovush choʻziqligi.
4. Soʻzlovchining shaxs va hodisalarga nisbatan turlicha munosabatlarini ifodalovchi pragmatik maʼno, yaʼni urgʻu va pauza orqali qoʻshimcha boʻyoq ifodalash.
5. Nutqning vazifaviy uslublari bilan bogʻliq qoʻshimcha maʼno

¹ A. Abduazizov. "Oʻzbek tili fonologiyasi va morfologiyasi" —T.: "Oʻqituvchi" 1992. —B. 7-18.

² A. Abduazizov. Fonostilistik vositalarning oʻrganilishiga doir. "Oʻzbek tili va adabiyoti". - T.; 1985. №2. —B. 24-28.

komponenti¹.

Fonetik uslubiyat, ya'ni tovush materiali, bo'g'in, urg'u hamda intonasiya turli konnotativ ma'nolar ifodalay olishini alohida ta'kidlash lozim. Chunki fonetik uslubiyatga ma'lum bir tildagi barcha fonetik vositalarning ekspressiv tomonlarini o'rganuvchi soha deb ta'rif beriladi. Stilistika bo'yicha yetuk mutaxassislar V.Arnol'd, G.M.Vishnevskaya, S.M.Gayduchik, V.I.Gaverdovskiy, M.P.Senkevich kabi olimlar konnotativ ma'no boshqa til birliklariga qaraganda kuchli ifodalanishini qayd qiladilar².

Badiiy adabiyotda fonetik yo'l bilan hosil qilingan qo'shimcha ma'no bo'yog'i asosan adgrent konnotasiya orqali namayon bo'ladi. Ular badiiy nutqning muhim tasviriy vositasi sanaladi. Chunki istagan so'zning nutqda fonetik jihatdan o'zgarib talaffuz qilinishi uning ta'sirchanligini oshiradi.

Tildagi fonemalar o'zining asosiy vazifasi - so'z ma'nolarini farqlash bilan birga stilistik ekspressiv va apellyativ vazifalarni ham bajaradi³. So'z tarkibidagi biror tovushning talaffuzida o'zgarishi (cho'zilishi, ko'tarilishi, pasayishi, kuchayishi, susayishi, o'rin almashishi, tushib qolishi, orttirilishi) hatto pauza ham ma'noga darhol ta'sir qiladi. Bunday hollarda so'zning denotativ ma'nosi saqlanadi, faqat konnotativ ma'no o'zgaradi. Bunday konnotativ ma'nolar nutqda uslubiy vazifa bajaradi. Nutqda so'zlardagi konnotativ ma'nolarning ro'yobga chiqishida nutq tovushlarining paradigmatic va sintagmatik munosabatga kirishishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tovush stilistik paradigmasi xuddi leksik, stilistik paradigma singari uch asosiy qismdan iborat: neytral, stilistik ortiq bo'yoqli, stilistik kam bo'yoqli. Tovush stilistik paradigmasi mustaqil ro'yobga chiqmay, so'z tarkibida yuzaga chiqadi. Nutq tovushlarining stilistik imkoniyatlari

¹ A.Haydarov. Fonetik o'zgarishning vazifasi. "O'zbek tili va adabiyoti". - T.; 2006. №3. -B. 75-77.

² A.Haydarov. Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi. Nomzodlik dissertatsiyasi...avtoreferati. T.;2009. -B.21.

³ В.Н.Айдаров. Фонетические средства стилистики. —Л.; 1971. -С.359-364.

haqida soʻz yuritganda, talaffuz stillari bilan bir qatorda tovush simvolizmi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tovush simvolizmi __soʻz tarkibida maʼlum bir tovushlar yigʻindisining shu soʻz maʼnosi bilan bogʻliq holda qoʻshimcha maʼno boʻyogʻini ifodalashidir. Tovush simvolizmida ayrim undosh tovushlarning akustik va artikulyasion xususiyatlari bilan bogʻliq maʼno ifodalanadi. Ammo unli tovushlarning ekspressiv jihatida kuchli deb qaraladi va ularning akustik xarakteristikasidagi ton, oberton, tovush kuchi, qisqalik va choʻziqlik asosiy vazifasini bajaradi. Eng kichik maʼnoli qism hisoblangan morfema tarkibidagi fonemaning nutqdagi aksi tovushdir¹. Tovushlarning nutqdagi oʻrni, talaffuzdagi farqi, tovushlar oʻzaro yonma-yon kelganda oʻzgarishga uchrashi uslubiy ahamiyatga ega. Nutq tovushlarida eng avvalo uch xususiyat koʻzga tashlanadi: artikulyasion, akustik va apellyativ.

Apellyativ holat - eshitib taʼsirlanish, yaʼni nutq tovushlarining emosional- ekspressiv xususiyatlari ochib beriladi.

Nutq tovushlarining emosional-ekspressiv va apellyativ xususiyatlari haqida Yevropa tilshunosligida E.S.Aznaurova, V.N.Aydarova, A.M.Antipova, YU.D.Apresyan, I.V.Arnold, LM.Astafeva, oʻzbek tilshunosligida esa A.Gʻulomov, A.Abduazizov, A.Pustamov, G.Yaxshieva, A. Haydarovlarning tadqiqotlarida fikr yuritilgan. Nutq tovushlarining turli xil talaffuzi nutq jarayonida asosiy fikrga qoʻshimcha boʻyoq, ekspressivlik bagʻishlaydi. Jumladan, tovushlarning choʻziqligi geminasiya (undoshni takrorlash orqali choʻzish) bilan aloqador: Oʻzbek tilida “uzun kun”-uzzu kun. Har ikkala holatda ham uzoqlik semasi bir xil ifodalangan.

Badiiy tasvirdagi personaj nutqida unli tovushlarning turlicha talaffuzi qator konnotativ maʼnolarni hosil qiladi:

1. Shodlanish, xursandlik, kayfiyatning yaxshilanishini ifodalaydi:

¹ A.Haydarov. Tovush simvolizmi. Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari. SamDU toʻplami. 2007. –B.100-102.

Ingliz tilida: She suddenly creed: Santyag **o-o-o!** (I.Voynich).

O'zbek tilida: Bolalar birdan qichqirdi: U**ee**-y, kino-**o-o-o!**

(S.Ahmad).

Har ikkala tildan olingan misollarda “o” unli tovushning cho'zilishi natijasida ma'lum qo'shimcha ma'nolar paydo bo'lib, unda personaj nutqining induvidialligi ko'rsatilgan.

2. Hayratlanish: Ingliz tilida:

- Ellie: -Are you very **ri:ch**?

- Cap. shotover: No, Living from head to mouth (B.Shaw).

O'zbek tilida:

I-i-i! Naziraxon shifokor bo'lganmi? (S.Ahmad).

3. Taajjub:

Ingliz tilida: -Augustus: Tush! Where are the others?

-The clerk: At the front,

-Augustus: Quite right. Why aren't y...ou at the front?

-The clerk: Other age. Fifty seven (B.Shaw).

O'zbek tilida:

Xo'-o'sh, agar adashmasam kandidatlikni tugatib kelayapsiz, shekilli? (O'.Usmonov).

Matndagi konnotativ ma'no, ayniqsa, bir so'zdagi unli va undosh tovushlar birgalikda takrorlanib talaffuz qilinganda yanada kuchli ifodalanadi.

Bunda tovushlarning nutqiy cho'ziqligi uzoq davom etadi. Bu qahramonning ichki kechinmasi, uning ruhiy tushkunligi, iztirobi, achinishi kabi holatlarinig real aks ettiradi.

Shunday qilib, unli tovushlar talaffuzida konnotativ ma'noning shodlanish, hayajon, g'ururlanish, ikkilanish, ishonch, tantanavorlik, musiqiylik, ohangdorlik, qo'rqinch, yalinish, shevaga xos xususiyatlarni aks ettirish kabi qator ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z o'rnida uslubiy ahamiyat kasb etadi.

1.2. Undosh tovushlar talaffuzi bilan bog'liq uslubiy

xususiyatlar.

Talaffuzda undosh tovushlarni ikkilantirib cho'zib aytish, takror qo'llash, tushurib qoldirish, orttirish kabilar natijasida hosil bo'lgan konnotativ ma'nolar ham turli xil qo'shimcha ma'no bo'yoqlarini hosil qiladi¹.

Ingliz va o'zbek tillarida undosh tovushlarning cho'ziqligi fonetik mohiyatga ega emas. Chunki ular fonetik tabiatiga ko'ra bir qadar qisqadir, ya'ni ular cho'zib aytilmaydi.

Ba'zan undosh tovushlarni ikkilantirish orqali cho'ziqlik hosil qilinadi. Bu hol so'z ichida vujudga keltiriladi va tasviriy hodisa bo'lib xizmat qiladi. Biror bir o'rinda ayrim so'zlar tarkibidagi tabiiy ravishda keladigan bir tipdagi qo'sh undoshlarni, ingliz tilida: **carry, lorry, marry, daddy**; o'zbek tilida esa: **arra, hamma, katta, issiq, avval** kabilarni to'g'ri va to'liq talaffuz qilish va yozish talab etilishini ham qayd qilish lozim. Chunki nutqda ularni me'yorida talaffuz qilmaslik ma'no buzilishiga olib keladi. Boshqa bir holatda esa bir undoshni ataylab ikkilantirib talaffuz qilish va yozish konnotativ ma'no hosil qiladi. Masalan: umid - **ummid, oshiq-oshshiq**.

Fonostilistik jihatdan so'zdagi bir undoshning miqdoriy takrori ifodalayotgan ekspressiv bo'yoq miqdori darajasini belgilaydi. Chunki so'zdagi konnotativ ma'no fonetik vositalar bilan ham darajalanib borish xususiyatiga ega.

Darhaqiqat, konnotativ ma'noning bunday darajalanib borishi so'zlovchining turli guruh holati, xarakterini aks ettiradi. Undosh tovushlarning cho'zib talaffuz etish og'zaki nutqda ularni qo'sh undosh holatiga keltirib talaffuz qilish, yozma nutqda esa ikkilantirib yozish orqali ro'yobga chiqariladi.

Bu usulda bir qator konnotativ ma'nolar yuzaga keladi. Mashhur ingliz adibi E.L.Voynichning mashhur "The Gadfly" (So'na) asarida uchratish mumkin:

¹ A.Oripova. Notiqlik nutqining fonetik vositalari. "Til va adabiyot ta'limi". - T., 2001. №4. -B.36-38.

-Whatever have you got there?

-Chocolate creams and English toffee!

-Why, this is **1-luxury** for a king!

-**R-r**-really? Well, you must get him **S-some** more tomorrow and give me these to take with me. No, let me **p-p-p**ut the toffee in my pocket¹.

O'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega yozuvchi A.Hasanning "Mutavalining qo'lbola shaytonlari" asarida ham shunday holatni kuzatish mumkin:

-**S** - salom, **Q** - **q**anoat!

-**Q** - **q**anoat, **s**-senda hamda **k-k**aptar bormi?

-Yo'q, dedi Qanoat. - Davronda ko'p, senda-chi?

-Shu-shu, **M-men**ikida **q-q**irqta, dedi.

Har ikkala tilda keltirilgan badiiy asardagi misollarda yozuvchilar ataylab undosh tovushlarni so'z boshida takror qo'llashlari birinchidan asar ta'sirchanligini kuchaytirish bo'lsa, ikkinchidan personaj nutqida nutqiy kamchilik borligini ko'rsatadilar.

Ba'zi bir sabablarga ko'ra so'z va gaplarning turli o'rinlarda takrorlangan undoshlarning talaffuzi hamda eshitilishda konnotativ ma'no nihoyatda kuchli ifodalanadi. Bir xil yoki bir-biriga yaqin tovushlarning takrorlanishi fonetik takrordir².

Tovush takrori termini dastlab O.Brik tomonidan kiritilgan va u faqat undosh tovushlarga nisbatan ishlatiladi. Keyinchalik bu termin poetik nutqdagi unli va undosh tovushlarga nisbatan kam qo'llaniladigan bo'ldi³.

Takror nafaqat nutq tovushlariga, balki til struktura elementlarining boshqa ko'rinishlariga ham xosdir. Jumladan, so'z takrori, morfologik qismlar takrori, sintaktik butunliklarning takrorlanishi kundalik aloqa jarayonida tez-tez uchrab turadi. Tovush takrori, ayniqsa, tinglovchi yoki

¹ I. Voynich. "The Gadfly" Publyshing house. Moscow 1965. -P. 66.

² A.Abdullaev. Ma'no kuchaytirishning fonetik usuli. "O'zbek tili va adabiyoti". - T.; 1969. №2. -B. 55-58.

³ A.Mamajonov. Qo'shma gap stilistikasi. -T.; "Fan", 1990. -B. 18.

o'quvchining diqqatini tasvir ob'ektiga ko'proq jalb etish uchun ishlatiladi. Takrorning asosiy vazifasi nutqni ta'sirchan qilish, fikrni oydinlashtirish va unga tinglovchi diqqatini tortishdir.

Takror va uning stilistik vazifasi haqida professor A.Mamajonov alohida fikr yuritgan, uning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik takror tarzidagi ko'rinishlari borligini bunday takror tiplari o'zbek xalq og'zaki ijodi materiallari, badiiy va publisistik asarlar tilida juda keng qo'llanilishini bayon qiladi¹.

Nutqda tovush takrori asosida hosil bo'ladigan konnotativ ma'no xususiyatlarini ochib berishda alliterasiya hodisasi muhim o'rin tutadi.

Alliterasiya - misralar, undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanilishi².

Alliterasiya hodisasi Sharq adabiyotida ham, G'arb adabiyotida ham ko'p uchraydi. Alliterasiyaning vazifasi matnda qo'shimcha musiqiy ohangdorlik yaratishdir. Uning mohiyati gapdagi bir xil tovushlar bilan boshlangan har bir so'zning takrorlanishidir.

Masalan: And the **d**ay is **d**ark and **d**reary. (H.Longfellow)

No **p**ay, no **p**lay: **f**ate and **f**ortune.

School for **S**candal: **S**ense and **S**ensibility;

Pride and **P**rejudice.

Tovush takrori ma'nosini alohida ta'kidlash ajratib va bo'rttirib ko'rsatish bilan birganlikda "til birliklariga emosional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi"ni ham bajaradi, deb ta'kidlaydi S.Karimov³.

Shunday qilib, o'z o'rnida ishlatilgan fonetik takrorning turli ko'rinishlari, ayniqsa, alliterasiya badiiy tasvirda muhim lingvopoetik hodisa bo'lib, musiqiylik, ritm va ohangdorlikni ta'minlaydi.

Xulosa qilganda, undosh tovushlarning talaffuzdagi cho'ziqlik, takror qo'llash, ularni nutq jarayonida tushirib qoldirish, kuchaytirish,

¹ A.Mamajonov. Qo'shma gap stilistikasi. -T.; "Fan", 1990. – B. 24.

² A. Hojiyev "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" -T.: "O'qituvchi" 1985.-B. 8.

³ S.Karimov. O'zbek tilining badiiy uslubi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - T.; 1993. –B. 50 .

qo'rquv, g'azab, ikkilanish, esankirash, yalinish kabi qator konnotativ ma'nolarni ifodalaydi. Bunday ma'nolar so'zlovchining emosional ekspressiv holatini, individual xarakteri va xususiyatini aks ettiradi.

1.3. Tovush o'zgarishlari va tovush takrori bilan hosil bo'ladigan konnotativ ma'nolar

Hozirgi zamon tilshunosligida tovush o'zgarishlari ro'y bergan til birliklaridagi konnotativ ma'no va ularning turli ko'rinishlarining tadqiqi dolzarb muammolardan biridir.

Nashr qilingan darslik va o'quv qo'llanmalarida fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar turlicha nomlanadi: "So'zning fonetik tuzilishi", "ba'zi fonetik proseslar: kombinator va pozision o'zgarishlar", "nutq tovushlarining o'zgarishi" kabi¹.

Hodisaning qanday nomlanishidan qat'iy nazar, ulardagi asosiy fikr nutq jarayonida so'zdagi tovushlar turli o'zgarishlarga uchrashi: biri ikkinchisi tomonidan moslashtirilishi, ayrim tovushlarning boshqacha shakllanishi, tushib qolishi, ba'zan so'zda yangi tovush paydo bo'lishiga borib taqaladi. Bunday hodisalar: assimulyasiya, dissimulyasiya, reduksiya, proteza, metateza, eleziya, apokopa, sinkopa, epinteza, singarmonizm kabi qator atamalar bilan nomlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan hodisalarning mohiyati va kelib chiqish sabablari har xil bo'lsa ham, asosan, ular nutqda ixchamlikka intilish, shoshilib talaffuz qilish, bo'g'indagi unli tovushning tushishi, sheva ta'siri, boshqa tillardagi o'zlashgan so'zlar talaffuzidagi qiyinchiliklar bunga sabab bo'ladi.

Til faktlari unli bilan undosh, unli bilan unli tovushlarning o'zaro o'rin almashishi mumkin ekanligini ko'rsatadi. Tovush o'zgarishlari bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlar natijasida hosil bo'ladigan har qanday holat ta'sirchandir. Bunday uslubdagi nutqda tilning aloqa vazifasi bilan

¹ S.Solixo'jaev. Emosionallikni ifodalovchi vositalar. "O'zbek tili va adabiyoti". - T.; 1978. №5. -B. 44-46 .

emosional ta'sir qilish vazifasi qo'shilib ketadi.

Talaffuzda undosh tovushlarni ikkilantirib aytish, takror qo'llash, tushurib qoldirish yoki orttirish fonostilistik ahamiyat kasb etadi.

Masalan: Stop! - She cried. **Don't** tell me!

I don't want to hear. **I don't** want to hear what you're come for.

I don't want to hear (Galsworthy).

Tovush o'zgarishi ikki xil bo'lib, ular: umumiy holda tovushlarning o'rin almashinishi, xilma-xil tovushlarning o'z tabiatidan kelib chiqib o'rin almashinish.

Masalan: ting-tang; ping-pong, tap-nap.

She'riyatda tovush almashinish natijasida turli konnotativ ma'nolar yuzaga keladi, jumladan "The bells" she'rida tovush almashinishini yaqqol ko'rish mumkin.

Hear the sledges with the **bells**, silver **bells**!

What a world of merriment their melody.

How they **tinkle, tinkle, tinkle**, in the city of night!

While the stars, that **oversprinkle**.

O'zbek tilshunosligida ham muhim fonostilistik vositalardan biri bo'lgan tovushlarning o'rin almashishi va unga xos ayrim xususiyatlar haqida SH.Shoabduraxmonov o'z fikr-mulohazalarini bildirgan, Uning fikricha bunday hodisa turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lib, adiblar o'z asarlarining ta'sirchanligini kuchaytirish maqsadida undan o'rinli foydalanishlar. Jumladan, A.Qodiriy o'zining "Bo'tqa" hajviyasidagi ko'pchilik qahramonlar nutqida ayrim arabcha yoki ruscha so'zlarning shakli ataylab o'zgartirilib talaffuz qildirilgan,

-**Maskaf** degan shaharda **astafka** degan ot o'yini ochilar emish. (A.Qodiriy).

Quvondiq so'fi nutqidagi **Moskva** so'zi **Maskaf**, **vistavka** so'zi **astafka** shaklida qo'llanib satirik vaziyat yaratilgan.

Bunday hodisadan she'riyatda foydalanish qofiyani rostlash,

she'ning ta'sirchanligini oshirishda muhim stilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Nasriy asarlarda ham shoirlar va yozuvchilar bu stilistik vositalardan unumli foydalanadilar.

Ingliz tilidagi quyidagi so'zlar talaffuzida tovush o'zgarishlari kuzatiladi: **ask-aks, galary-gallery, introduce-introduce;**

Badiiy asarlar matni tarkibida ko'p uchraydigan fonetik o'zgarishli so'zlardan biri protezadir.

Protezada ma'lum sabablarga ko'ra so'zning boshida tovush orttiriladi. Unda so'z boshida unli tovush orttiriladi. Masalan: **rus - urus** (o'ris), **ro'mol - o'ramol, stol - ustal, stakan - istakan.**

Proteza hodisasi chet tili so'zlarining talaffuzini aynan berish, ya'ni o'sha davr ruhini personajlar nutqida real tasvirlash uchun ishlatiladi.

Apokopa - so'z oxiridagi tovush yoki tovushlarning tushib qolishi hodisasi ham jonli so'zlashuv nutqini real aks ettirish uchun badiiy tasvirda muhim fonetik stilistik vazifa bajaradi,

Ingiiz tilida: alexandre-alex, photograph-photo;

O'zbek tilida: kel - ke, go'sht - go'sh, g'isht - g'ish.

Shuningdek tilda quyidagi fonetik o'zgarishli so'zlar metateza, epinteza, prokopa, diereza, sinkopa, sinereziya kabi turlari mavjud, Jumladan:

Assimilyasiya: write, know;

Dissimilyasiya: marble, hearen-heaven;

Reduksiya: phonetics, secretary;

Epinteza: fence-fents; family-fambly;

Prokopa: escape-scape, it is-its;

Sinkopa: over-o'er; want-to wanna;

Xullas, fonetik qiyofasi o'zgarishli so'zlar: tovush tushishi, orttirilishi, o'zaro o'rin almashishi, so'z bo'g'inlarining qisqartirilishi, nutqiy tejamlilik, personajlar nutqining individuallash, tinglovchida hissiy ta'sirchanlik hosil qilishda fonostilistik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bir xil yoki bir-biriga o'xshash tovush til birliklarining badiiy nutqda takrorlanish hodisasi takrordir¹. Fonetik takror ayrim tovushlarning misralararo takroriga asoslanuvchi stilistik figuralar anfora, epifora, allitratsiya, assonansni o'z ichiga oladi.

Takror poetik va publitsistik asarlar tilida eng ko'p qo'llaniladigan sintaktik-stilistik figura bo'lib hisoblanadi. Tovush takrori termini dastlab O.Brik tomonidan kiritilgan va u faqat undosh tovushlarga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik bu termin poetik nutqdagi unli va undosh tovushlarga nisbatan ham qo'llaniladigan bo'ldi. Unli tovushlar takrori, undosh tovushlar takrori, bo'g'in takrori kabilar xalq og'zaki ijodi namunalariga, poetik nutqda ko'p uchraydi. Fonetik takror, asosan badiiy nutq uslubiga xosdir. Fonetik unsurlarni ataylab takrorlash orqali avtor o'z tasvir kuchini oshirishiga, his-tuyg'ularini bo'rttirib ifodalashga erishadi. Tovush takrori, ayniqsa, tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tasvir obyektiga ko'proq jalb qilish uchun ishlatiladi. Takrorning asosiy vazifasi nutqni ta'sirchan qilish, fikrni konkretlashtirish va unga tinglovchi diqqatini tortishdir. Takrorning sintaktik-stilistik xususiyatlari haqida tilshunoslardan I.M.Astafeva, M.N.Adilovlar maxsus monografik tadqiqotlar olib borganlar. Takror (repetition) nutqning og'zaki shakli xususiyatiga asoslangan sintaktik-stilistik vosita bo'lib, bu hayajonli holatni ifodalash maqsadida qo'llaniladi.

Emotsional nutq qisqaligi, mantiqliligi va bayon qilinayotgan fikrning ayrim bo'laklari takrorlanishi bilan ajralib turadi. Takror stilistik vositasining ishlatilishi tabiiy bo'lishi lozim hamda ma'lum bir so'zlar takrori gapda so'z o'yinini yaratadi.

Masalan: For that was it? **Ignorant** of the long and stealth march of passion, and of the state to which it had reduced Fleur; **Ignorant** of how soams had watched her; **Ignorant** of Fleur's reckless desperation **Ignorant** of all this everybody fut aggrieved (I.Galsworthy)

¹ Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. Maxsus kurs –T.: 1989. –B. 66

Yuqoridagi misolda **ignorant** so'zining bir necha marta takror kelishi, yozuvchi diqqatini jalb etish uchun stilistik figura sifatida ishlatilgan.

Takror va uning stilistik funksiyasi haqida professor A.Mamajonov fikr yuritib, uning fonetik takror, leksik takror, morfologik takror, sintaktik takror ko'rinishlari borligini, bunday takror tiplari xalq og'zaki ijodi materiallari, badiiy va publisistik asarlar tilida juda keng qo'llanishini bayon qilgan¹. Bu holat sintaktik-stilistik figuralar analizi uchun boy material bo'lib hisoblanadi, hamda takror bo'yicha alohida va muhim tekshiruvlar olib boorish, tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatini tug'diradi" deb takror hodisasining nihoyatda dolzarbligini ko'rsatadi. Ingliz tilida takror stilistik vositalar tuzilishiga ko'ra quyidagi ko'rinishda ajratiladi.

1. Misra yoki gap bo'lagining boshida kelgan takror anafora² deyiladi yoki boshqacha aytganda, paralel tuzilgan nutq parchalari boshida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figura. Bu stilistik figuradan his-hayajon, ko'tarinki ruh bilan aytiladigan nutq shakllarini yaratish uchun foydalaniladi. Anaforadan adiblarimiz mohirona foydalanganlar.

Jumladan: For want of a shoe, the horse was lost,

For want of a horse, she rider was lost,

For want of arider, she battle was lost.

O'zbek she'riyatida Uyg'unning quyidagi she'ridan parcha keltirish mumkin:

Qani qizlar, qani o'rtoqlar?

Qani ko'klam, qani go'zal yor?

Qani gullar, qani bulbullar?

Qani shodlik, qo'shiq, kulguzor?

Yoki Uyg'unning yana bir she'rida ushbu statistik figura ishlatilgan.

Men bahor qo'shig'in kuylayman dadil,

Chunki bu-talaba haqlikning sozi.

Chunki bu-abadiy baxtning yallasi,

¹ Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. Maxsus kurs –T.: 1989. –B. 66

² Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati –T. "O'qituvchi". 1985. –B. 46.

Chunki bu-so'nmovchi hayot ovozi.

2. Gap oxirida kelgan takrorlar yoki boshqacha aytganda, she'riy asarlarda so'zlar va misralar oxirida ifodalikni kuchaytirish uchun ayrim unli va undosh tovush takrorlanadi. Bunga tovush nihoyasi yoki epifora deyiladi¹.

Masalan: _when I go into the bank. I get **rettled** me, every thing **rattles** me.
(S.Leacock)

O'zbek adabiyotida H.Olimjon sh'riyatida quyidagi misrani keltiramiz.

Uyda, oilada, dalada,

Oppoq paxta bo'lgan serunum yerda,

Ozod mehnat zo'r jadal bilan

Insonni qaytadan ko'kartirgandda,

Har minut sen o'zing biz bilan birga,

3. Takrorlanuvchi birliklar o'ziga xos doira hosil qilib, parchaning boshida ham kelishi mumkin. Bunday takror halqasimon takror (frame repetition yoki ring repetition) deb ataladi.

Bunday takror turiga quyidagi she'riy parchani keltiramiz.

Our hands have met, but not our hearts.

Our hands will never meet again.

Friends, if we have ever been Friends, we cannot now remain;

I only know I loved you once,

I only know I loved you in rain.

Our hands have met, but not our hearts

Our hands will never meet again. (Thomas Hood)

O'zbek she'riyatida esa quyidagi parcha takrorning bu turiga misol bo'la oladi.

Nafis chayqaladi bir tup namatak

Yuksakda shamolning belanchagida

Quyosh ko'tarib bir savat oq gul

Viqor-la o'shshaygan qoya labida

Nafis chayqaladi bir tup namatak.

¹ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati –T. "O'qituvchi". 1985. –B.100.

4. Takrorning yana bir ko'rinishi topilma takror (linking repetition) or anadiplosis catch repetititon, reduplication) birinchi misraning oxirida kelgan muayyan so'z ikkinchi misraning boshida takrorlanib keladi.

Masalan: Freedom and slow. Show me . . . carried on an uninterrupted now hidden now open fight, a fight that each time ended. (D.Cusack).

“Failure meant poverty, poverty meant stage to stagnation.

O'zbek tilida: Beshik bolani, bola dunyoni tebratar.

5. Tizma takrorlar (chain repetition) ga takrorlanuvchi so'zlar ma'nosi kuchayib boradi.

Masalan: **A smile** would come into Mr. Pick-wick's face; the smile extended into a **laugh**, the **laugh** into a **roar** and the **roar** became general. (Dickens)

- For glances be get **ogles, ogles sighs, sighs** wishes **words** and **words** a litter. (Byron)

-Soatlar **kunlarni, kunlar haftani, haftalar** oylarni to'ldirganidak, a'lochi nomini aslo bo'shatmay.... (G'.G'ulom)

But two minutes later the sun vanished behind flying cloudy continents, a relative darkness descended in the summer afternoon, and rain two descended-descended in such so asking over whelrning quantities that.... (L.Murdoch)

6. Takrorning o'zakli takror (root repetition) deb nomlangan turi ham mavjud. Uning mohiyati shundaki, unda so'z aynan takrorlanadi, biroq ularning biridagi qo'shimcha qism takrorlanmaydi.

Masalan: The child smiled, the smile and langhed the laughes of contientment... (A.Bennett).

O'zbek tilida: Oliy fazilatdir mening havasim, havas orzusida yonar nafasim. Har ikkala tilda keltirilgan misollarda o'zakli takror turi bilan birga kelyapti. Aynan takror o'zining stilistik vazifasiga ko'ra so'z o'yiniga yaqin turadi.

Bu usulda o'sha so'z aynan o'zi takrorlanmay, faqatgina so'zning o'zagi takrorlanadi. “ to live again in the **youth** of the **young**” (I.Galsworthy)

He loves a dodge for its own sane, being

The **dodges** of all the **dodgers** (Dickens)

7. Takrorning navbatdagi turi sinonimik takror (synonymical repetition) bo'lib, unda bitta tushunchani ifodalash uchun sinonimik, ya'ni ma'nosi bir biriga yaqin bo'lgan vositalar qo'llaniladi.

- Are there not capital punishments sufficient in your statutes? Is there not **blood** enough upon your **penelcode**?

Ushbu holatda obyektiv sinonimlar qo'llanilishi shart emas. Voqea va hodisalarni obrazli qiyoslash ham tushunchalar bir-biriga yaqinlashtirilishi mumkin.

Bunda so'zlar matniy ma'noga ega bo'ladi. Yuqoridagi misolda "capital punishments" va "statutes" so'zlari keyingi misralarda "penal", "code" va "blood" kabi matniy sinonimlardan iborat.

Sinonimik takror bitta, yagona, ma'noni ifodalashga, fikrning asosiy mazmunga qo'shimchalar kiritadi, kengaytiradi, detallashtiradi. Notiqalar nutqqa sinonimik takror nutqning kuchini oshirishi va ishontirishi, badiiy nutqqa detallashtirish vazifasini bajaradi.

The **poetry** of **earth** is never dead

The **poetry** of **earth** is clasing never. (I.Keats)

Inson qalbi bilan o'ynashma,

Inson qalbi oftob aks atgan chashma

Goh bulutday yengil, goh tog'day zil.

Sinonimik takror haqida gapirganda, pleonazm haqida to'xtash lozim, deb o'ylaymiz.

Pleonazmda faqatgina o'sha so'z yoki vosita takrorlanib, qolmasdan, balki, o'sha mazmun, ma'no ham takrorlanadi. Bu xuddi ortiqcha takrorday nutqqa ortiqcha qusur sifatida ko'rinadi. E'tirof etilgan fikrga hech qanday qo'shimcha ma'no bermaydi. Pleonazm nutqning kamchiligidir. Pleonazmlar badiiy-estetik nuqtai nazardan asoslanmagan sinonimik takrorlardir. Ammo pleonazm hodisasi tilda, ayniqsa, o'zbek tilida bu ma'no deyarli yo'q hodisadir.

1. and the books—they stood on the shelf
2. the wound At summer both sore and sad

Bu ikkala misolda pleonazm soʻzlar oʻrniga olmoshlar qoʻllash bilan ifodalangan.

The books- they

The wound- it

Pleonazmlar badiiy-estetik nuqtai nazardan asoslanmagan sinonimik takrorlardir. Soʻzlar takroriga asoslangan sanʼatlar orasida eng keng tarqalgan turidir. Bu sanʼatning mohiyati shundan iboratki, sheʼr baytini boshlagan soʻz, uning oxirida ham takrorlanadi.

Shunday qilib, emotsional-ekspressivlik barcha til birliklarida boʻlganidek, fonetik vositalarda kuchli ifodalanadi. Bunda nafaqat nutq tovushlarining turli talaffuzida, balki tovush oʻzgarishlari, tovush takrori orqali ham emotsional ekspressivlik kuchli ifodalanadi. Soʻz sanʼatkorlari oʻz asarlarining taʼsirchanligini oshirish maqsadida takror stilistik figurasidan keng foydalanadilar.

II BOB. SUPERSEGMENT FONETIK VOSITALARDA IFODALANGAN KONNOTATIV MA'NOLAR.

2.1 Intonatsiya – supersegment fonetik vosita va uning uslubiy xususiyatlari.

Ma'lumki, til fonetikasiga doir mavjud tadqiqotlarda fonologik aspektning yoritilmasligi tufayli tovush strukturasi, bo'g'in, urg'u va intonatsiyaning lingvistik nuqtai nazaridan zarur bo'lgan funksional alomatlari, ya'ni jamiyat muloqotida muhim bo'lgan tomonlari yoritilmay qoladi. Aslida nutqning faqat artikulyatsion - akustik va prosodik tomonlari bilan chegaralanib qolish tilshunoslik faniga doir xulosalarga olib kelishi mumkin.

Fraza urg'usi, melodiya, ritm, pauza, temp, tembr kabi prosodik elementlarning birligidan iborat bo'lib, tilda har xil sintaktik, ekspressiv va emotsional ma'nolarni ifodalovchi murakkab hodisa intonatsiya deyiladi, Prosodik elementlarining har biri intonatsiyaning komponenti yoki parametri deb yuritiladi.

Melodiya va fraza urg'usi intonatsiyaning birlamchi, qolgan elementlar - ikkilamchi komponentlari hisoblanadi.

Tilda ohang turlari va ularning grammatika (sintaksis) bilan aloqasi, leksik-semantik xususiyatlari, fizik va fonologik belgilarini o'rganish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Intonatsiya turlarini eksperimental-fonetik jihatdan

tekshirish natijasida ularning strukturasi grammatik, fonologik (ma'noni farqlash) fonostilistik (ekspressiv ma'no berish) va paralingvistik ovozning sifati bilan bog'liq bo'lgan alohida talaffuzi, unda imo-ishoralar va mimikaning boshqaruvi vazifalarini to'laroq aniqlash mumkin.

Til kishilar orasida aloqa aralashuvida muhim vosita bo'lib, uning atash, kommunikatsiya qilish va emotsional-ekspressiv xususiyatlari mavjud.

Tilning atash, aloqa qilish vazifasi tilshunoslikda atroflicha o'rganilgan. Ammo uning kishi ruhiga ta'sir etuvchi emotsional-ekspressiv xususiyatlari ya'ni uslubiy jihatlarini o'rganish yetarli emas.

Til mohiyatan, ichki qurilishi jihatidan nominativ, kommunikativ va ekspressiv xususiyatlarni bajara oladigan qudratli vositadir¹. Tilning atash funksiyasi, tafakkur formasi yani tushunchalarni malum qolibga soluvchi vosita ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, uning hissiy tasirchanlik, yani emotsional-ekspressiv funksiyasi tilning mustaqil sistema ekanligi, til elementlarining mohiyati, ularning ichki munosabatlarida ochilishi mumkin ekanligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Fonostilistikada tilning tovush materialini bog'in, urg'u, pauza hamda intonatsiyada turli qo'shimcha ma'nolarning ifodalanishi o'rganildi. Fonetik birliklar umumtilshunoslikda segment va supersegment atamalarini bilan ataladi².

Professor A. Abduazizov shunday yozadi: "Fikrimizcha ularning har ikkisini ajratmay, fonostilistika termi bilan yoritish bu sohaning obyektini ancha kengaytiradi. Umuman barcha fonetik vositalarning ekspressiv tomonlariga fonostilistikaning o'rganish sohasi sifatida qarash ancha qulaydir"³.

Intonatsiyani o'rganishda professor A. M. Peshkovskiy an'alaridan foydalanish va hozirgi davr tilshunosligidagi "intologiya" nazariyasi va usullarining ijobiy tomonlari qo'llash zarur. Nutqning sintagmatik bo'linishi, pauza, ritm, nutq sur'ati (tempi) va ovoz sifati (tembri)ning o'zgarishi eng zarur belgilar hisoblanuvchi (melodika) va ibora (pauza) urg'usining tabiatini ham

¹ Абдуазизов А. Узбек тили фонологияси ва морфонологияси. Тошкент. "Ўқитувчи" 1992. -Б.134.

² Абдуазизов А. Фоностилистик воситаларнинг ўрганилишига дойр// Узбек тили ва адабиёти - Тошкент 1985. №2. -Б.24-28.

³ Абдуазизов А. Узбек тили фонологияси ва морфонологияси.// Тошкент. Ўқитувчи 1992. -Б. 134

o'zgartirib yuborish natijasida gapning mazmun jihatidan (kommunikativ) turi, uning semantik (ma'no) jihati va emotsional tomoni ham o'zgarib ketishi mumkin.

Intonatsiya o'zining sostavli elementlari, nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq intensivligi nutq tempi, nutq tembri, logik va fraza urg'ulari bilan xarakterlanadi. Shu sababdan intonatsiya nutqiy talaffuz jarayonida murakkab kompleksdan iborat bo'lgan fonostilistik hodisadir. Uning grammatik jihatlari o'rganishning bir obyekti bo'lsa, ikkinchi jihati intonatsiyaning konnotativ ma'no darajasi, ya'ni uslubiy xususiyatlaridir.

Intonatsiya nutq uslublarining barchasida uchraydi. Ilmiy uslubdan tashqari barcha nutq uslublarida intonatsiyaning konnotativ ma'no ifodalash darajasi kuchlidir.

Intonatsiya gapda turli xil vazifalarni bajaradi. Jumladan, u gap turini, komponentlari orasidagi bog'lanishni, modalligini, emotsional boyog'ini hamda ifodalagan sanash, qarama-qarshi qo'yish, chog'ishtirish kabi qo'shimcha mazmunlarni ham ifodalaydi.

A.G'ulomovning intonatsiya haqidagi fikrlarini umumlashtirgan taniqli tilshunos A.Abduazizov shunday yozadi: "Intonatsiya A.G'ulomov tomonidan chuqur tadqiq etilgan, uning faqat fonetika bilan emas, balki grammatika, ayniqsa, sintaksis va stilistika bilan uzviy bog'liqligi har tomonlama misollar bilan tasdiqlagan¹.

Xuddi shuningdek, intonatsiyaning nutqiy muloqotdagi o'rni haqida I.Hojialiye², intonasiyaning temporal komponenti haqida X.Yo'ldoshevning ilmiy mulohazalari yaxshi bayon etilgan³.

M.Mirtojiyev intonatsiyaning umumiy xususiyatlari haqida, E.Qilichev Intonasiyaning stilistik imkoniyatlari, A.Haydarov esa intonasiyaning badiiy nutqda uslubiy xususiyatlari haqida fikr-mulohazalarni bildirganlar.

¹ Абдуазизов А. Узбек тили фонологияси ва морфонологияси.// Тошкент. Ўқитувчи 1992. –Б 134.

² Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.-Т.: "Ўқитувчи" 1988.

³ Иўлдошева Ҳ. Сўрок юкламалари ва жумла урғуси "Ўзбек тили ва адабиёти".- Тошкент, 1983. №4. - Б.63-65

Intonatsiyaning nutq jarayonidagi roli maxsus monografik tarzda tilshunos olim I.A.Kanter tomonidan o'rganilgan. U ingliz va rus tillari materiallarini qiyosiy va sistem tahlil qilgan. Olimning “Sistemniy analiz rechevoy intonatsii” monografiyasining uchinchi bobi to'liq nutqiy intonatsiyaning fonostilistik tahliligi bag'ishlangan. Asosan ushbu ilmiy asarda fonetik stilistikaga to'la obzor beriladi. Uning ta'kidlashicha, lingvistikada fonetik uslubiyot alohida fan sifatida ham to'liq shakllanmagan, bu sohada xilma-xil nazariya va qarashlar mavjud. Intonatsiya va uning komponentlari temp, tembr, melodiya orasida o'zaro bog'liq va mutanosiblik mavjud, shu jihatdan uning uslubiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda intonatsiya muhim rol o'ynaydi. Intonatsiya lotincha so'z bo'lib, “baland”, “tovush bilan talaffuz qilish”; “ohang” demakdir.

Intonatsiya nutq bo'laklarining sintaktik ma'nosi va hissiy bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. U nutqda ovozning baland-pastligi, ohang orqali ro'yobga chiqadi.

Intonatsiyaga xos xususiyatlar rus tilshunoslari V.A. Artyomov, I.A.Svetozorova, E.A.Brizgupovalar tomonidan atroflicha o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida esa bu hodisa bo'yicha alohida mukammal ilmiy tadqiqotlar yaratilmagan. Birgina H.Yo'ldoshevaning eksperimental fonetika asosida intonatsiyaga bag'ishlangan ilmiy ishini ko'rsatish mumkin.

Ingliz tilshunosligi esa V.Vasilov “English phonetics” kitobida bu haqda bir muncha ma'lumotlar berilgan bo'lsa, Antipova E.A “English Intonation” (i-1974) kitobida intonatsiya va ohangning pasayuvchi va ko'tariluvchi xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot bergan.

Nutq jarayonida intonatsiya, asosan ikki vazifani bajaradi:

1. Nutq oqimining ma'noli bo'laklarga ajratish va shu asosida mazmun ifodalash.

2. Nutqda emotsional o'ttenka ifodalash¹.

Har bir gapni turli ohangda aytish mumkin.

¹ Иўлдошева ,Ҳ. Интонациянинг темпорал компонента ҳақида // “Ўзбек тили ва адабиёти” - Тошкент -№5 -Б.46.

Masalan: O'zbek tilida “Men kitobni o'qib bo'ldim.” gapini darak, so'roq, undov gap ohangi da aytganimizda gapning mazmuni o'zgarmaydi, ammo hissiyot o'zgaradi.

Ana shunday misollarga murojaat etaylik.

1. Odam bo'l, akang kabi, axmoq bo'lma.
2. Bu axmoq injenerning gapini qaytarib o'tiribdimi? hali.

Ingliz tilidan intonatsiyaning ikki turi: ko'tariluvchi va pasayuvchi turlari mavjud.

Ingliz tilidagi intonatsiyaning turli xillarini tahlil qilishda tilshunos olim E.A.Antipovning ilgari surgan nazariyasiga asoslanib, ingliz tilidagi pasayuvchi ohangning uch xili ya'ni past pasayuvchi (lc-1), baland pasayuvchi (lE-3), ko'tarilib pasayuvchi (lc-6) va o'zbek tilidagi ancha past-past va baland-past ohang turlari qiyosiy tahlil qilindi va ularning turli gaplardagi funksiyasi aniqlandi. Pasayuvchi ohangning ingliz va o'zbek tillarida fizikaviy (Tonogramma) jihatdan ikkala tildagi tonlar deyarli farq qilmaydi.

Masalan: 1) past (law-fall) (lc-1) ohangini ingliz va o'zbek tillarida talaffuz qilish jarayonida ovoz o'rta diapazondan eng pastda tushib, e'tiborsizlik, sovuqqonlik, befarqlik hislarini ifodalaydi. So'roq gaplarda esa butunlay ohang jiddiylik, ma'suliyatsizlikni ifodalaydi. Umuman bu ohang tinch, osoyishta, mayin tonligi bilan farqlanadi.

Holatni ifodalashda:	
<i>Ingliz tilida</i>	<i>O 'zbek tilida</i>
They speak French well	Ular fransuz tilida yaxshi gapiradilar
Buyruqni ifodalashda	
Stop talking!	Gaplashishni to'xtating!
Umumiy so'roq gaplarda	
Do you mind my cleaning the room!	Xonani tozalashimga qarshi emasmisiz
Undov gaplarda	

What a wonderful surprise!	Qanday ajoyib uchrashuv!
----------------------------	--------------------------

Baland pasayuvchi /High/fall/(lc-3) ohangini talaffuz qilishda ovoz baland darajasidan pastga tushadi va notiq fikrida qiziquvchanlik kuchli ekanligini anglatadi. Bu ohang darak gaplarda ikkala tilda ham hayratlanish, norozilik, qarshilik ma'nolarini, undov gaplarda esa samimiylik, qiziqish hissiyotni ifodalaydi¹.

Holatni ifodalashda	
<i>Ingliz tilida</i>	<i>O'zbek tilida</i>
It was beautiful	Bu chiroyli
Umumiy so'roq gapda	
Does he speak German?	U nemis tilida gapiradimi?
Special question (maxsus so'roq gaplarda)	
Whose book is it?	Bu kimning kitobi?
What has happened to you?	Nima bo'ldi o'zi sizga?
Command Buyruqni ifodalaganda	
Stay at home!	Uyda qoling!
Exclamation Undov gaplarda	
What nonsense!	Be'mani gap!

Ko'tarilib pasayuvchi (high-fall l-c-6) ohangini talaffuz qilish jarayonida ovoz o'rta diapazondan yuqoriga ko'tarilib, birdaniga eng pastga tushadi va notiqning ta'sirchanlik hissiyotini ya'ni hayotlanish g'azablanishini ifodalaydi. So'roq gaplarda esa ikkilanish, xavfsirash, ishonchsizlik, buyruq gaplarda befarqlik, javobgarsizlik emotsiyalarini ifodalaydi².

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, ingliz va o'zbek tillarida ohangning o'zgarishi bilan so'zlovchining har xil hissiyotlari ifodalanadi. Gap fonetik va ma'no jihatdan shakllantiriladi.

¹ Антипова Д. Н. Сопроводительный курс фонетики и интонации. - М., 1977.-С.46.

² Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз остетикаси,- Тошкент. "Фан". 1981 —Б.58

Ohang gaplarda ma'no jihatdan guruhlarga bo'ladi, jummalarni bir-biridan ajratadi va so'zlovchining o'zi aytgan fikriga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Tilda intonatsiyaning temporal xususiyatlarini ham hisobga olish juda muhim komponentlardan biridir.

Ma'lum bo'ladiki, nutqda intonatsiyaning o'zgarishi so'zlovchining har xil tuyg'ularini aks ettiruvchi muhim fonostilistik vositasidir^{1 2}.

Fonostilistik vositalardan xabardor turib, adabiy tilning leksik va grammatik qoidalarini muvoffaqiyatli egallab bo'lmaydi.

Ayniqsa, fonostilistikaning sillabika va intonatsiya bilan shug'ullanuvchi tarmoqlari badiiy nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Badiiy nutqni intonatsiyasiz taasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun intonatsiya va uning emotsional xususiyatlarini yanada chuqurroq va monografik tarzda o'rganish tilshunoslar oldida turgan navbatdagi dolzarb masalalardan biri.

Intonatsiya xususiyati bilan she'riy janr asarlari o'zaro farqlanadi. Bu farqlanish ularning mazmun va mohiyatini ham belgilab beradi. Buni ijtimoiy,siyosiy she'rlar bilan birga,ishqiy intim she'rlarning o'qilishidagi intonatsiyada yaqqol ko'rish mumkin.

Shuningdek, ingliz tilida ham she'rlar, she'riy parchalarni aytishda intonatsiyaning ahamiyati juda katta.

Masalan:

There was a young girl, a sweet lamb.

Who smiled as she entered a tram.

After she had embarked,

She conductor remarked;

Your fare? And she said, Yes, I am

Ushbu sheri misrada har bir qator o'zaro qofiyalanib kelayapti.

Jumladan: **lamb- tram;**

embarked- remarked.

¹ Азнаурова Э. С. Очерки по стилистике слова. - Тошкент, "Фан" 1973.

² Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка. - М.: "Просвещение", 1990. - С. 209-221.

Chunki intonatsiya bilan aytiladigan har qanday she'rda qofiya asosiy rolni bajaradi.

Mashhur shoir Robert Frost qalarniga mansub she'rda ham intonatsiya katta ahamiyat berib o'qilsa, undagi his-hayajon yana ortadi, ulardagi uslubiy bo'yoq yanada jonlanadi.

Masalan:

Lovers forget your love,
And list to the love of these,
She a window flower,
And he a winter freez!

Quyidagi qo'shiqda esa intonatsiya bilan bir qatorda pauzaga alohida e'tibor berilgan.

Song

Sweet and low, sweet and low,
Wind of the western sea,
Low, low, breathe and blow,
Wind of the western sea.
Over the rolling waters go.

Come from the dying moon and blow.

Intonatsiya - universal hodisa. Bu uning kommunikativ funksiyasida yuzaga chiqadi. Intonatsiya - ko'p funksiyali hodisa.

Shunday qilib, intonatsiyaning muhim funksiyasi jumlaning shakllantirish va ajratish funksiyasidir. Intonatsiya jumlaning shakllantiradi, oldingi hamda keyingi jummalardan ajratadi. Boshqa funksiyalari, aynan mana shu funksiya ichida yuzaga keladi. Jumla ichidan esa, shakllantirish va ajratish sintagma chiqarishiga to'g'ri keladi. Intonatsiya jummalarning kommunikativ turlarini bir-biridan farqlab bersa (darak, so'roq, buyruq). Uning bo'rtirilishi - alohida ta'kidlash funksiyasida namoyon bo'ladi.

Akustik cho'qqilar (melodik, temporal, dinamik) yoradimida jumladagi informatik jihatdan muhim bo'lgan qism alohida ta'kidlanadi.

Supersegment fonetik vosita hisoblangan intonatsiyada konnotativ ma'no kuchli ifodalanadi. Intonatsiya nutq bo'laklarining sintagmatik ma'nosi va hissiy bo'yoqlarini ifodalash uchun ishlatiladi. U nutqda ovozning baland pastligi, ohang orqali ro'yobga chiqadi.

Intonatsiya og'zaki nutqqa xos bo'lib, alohida bir sistemani tashkil etadi, nutq melodikasi va ritmi, nutq tezligi va tembri, logik urg'u kabilar intonatsiyaning tarkibiy qismlari bo'lganidek, bularning barchasi supersegment hodisalar sanalgan va doimo nutq tarkibida yashaydi¹. Intonatsiya orqali gap bo'laklari ajratiladi, yozma nutda tegishli tipini belgilari bilan ajratib yoziladi. Intonatsiyadan kundalik nutqiy jarayonda uning mazmunini teran qilish va emotsional ta'sirchanligini yanada oshirish uchun foydalanish lozim.

Intonatsiya haqida fikr yuritilar ekan, prosodiyani esdan chiqarmaslik kerak. Chunki intonatsiya va prosodiya nutqiy jarayonda yahlit ishlatilib, nutqiy akti yuzaga keltiradi. Biroq bu ikki og'zaki nutqqa xos hodisani bir- biridan farq qilishini ta'kidlash lozim². Bu sohada ba'zi xorijiy mamlakatlardagi tilshunoslar va bizda V.A. Artyomov ish olib bormoqda.

Intonatsiya bilan prosodiyani farqlamaslikning sabablaridan biri eksperimental- fonetik tadqiqotlarning boshlang'ich davrida intonatsiyani ton, melodiya bilan tenglashtirib yuborilganida bo'ldi. Intonatsiyaning qabul qilinayotgan murakkab obrazini, keyin esa uning fizik xususiyatlarini va o'rganilayotgan gap melodiyasini pianino yordamida eshitib qabul qilish prosodiya bilan intonatsiya hodisalarini sezib olishni birmuncha qiyinlashtirib qo'ydi³.

Akustik nutqiy signalning tovush paychalari hosil qilinadigan birlamchi fizik xususiyatlari prosodik jihatdan ahamiyatlidir. N. S. Turibeskov fraza farqlovchilar ya'ni intonatsion vositalar prosodik vositalardan tubdan farq qiladi deb to'g'ri aytgan edi. Intonatsiya bilan prosodiyaning umumiy va o'ziga xoslik tomonlari quyidagilar:

¹ Брюгунова Е. А. практическая фонетика и интонация русского языка, - М: "Просвещение", 1963

² Вишневская Г, М. Английская интонация. - Иванова, 1985.

³ Бризгунова Е. А. практическая фонетика и интонация русского языка, - М: "Просвещение", 1963.

1. Til hodisasi, og'zaki nutqda yuz beradi, predikativ, sintaktik, logik va modal munosabatlarini amalgam oshirish uchun xizmat qiladi.
 2. Til intonatsion ma'nolari sistemasi sifatida
 3. Bevosita qabul qilinadigan til ahamiyatiga egadir.
 4. Tovush paychalari asosiy tebranishning nisbiy qiymatidagi daraja, interval va diapazonlar asosiy ton tebranishi intensivligi va cho'ziqligining artikulyatsion funksiyasidir.
 5. Nutqiy signal ikkilamchi akustik xususiyatlarining fizik funksiyasidir.
 6. Nutqning mazmuniga ta'sir qiladi.
 7. Fonologik jihatdan funksional farqlovchi belgi bo'lib, verbal harakatlarning tiplari, turlari va variantlarini ifodalaydi.
 8. Fonema tushunchasi funksional xarakterga egadir.
 9. Intonatsiya nutqning kommunikativ tabiatini va mazmunini belgilaydi.
- Prosodiya intonatsiyadan farqli o'laroq, quyidagi xususiyatlarga ega:
1. Nutq va til hodisasi, fonetik so'z va birlikdagi bo'g'in va bo'g'in tuzilishini aniqlash uchun xizmat qiladi.
 2. O'ziga xos ritmik melodik negiz sifatida, ma'lum darajada turli tillarda yoki turlicha o'xshash bo'lgan tilga yohud faqat nutqqa xos belgidir.
 3. Bevosita qabul qilinadigan til ahamiyatiga ega emas, ya'ni biror til birliklarining ma'nolarini farqlamaydi.
 4. Asosiy ton tebranishi, intensivligi va cho'ziqligi bo'yicha tovush paychalari asosiy tebranishning absolyut qiymatidagi artikulyatsion funksiyasidir.
 5. Nutqiy signal birlamchi akustik xususiyatlarning akustik funksiyasidir.
 6. Bunday ta'sir kuchiga ega emas.
 7. Fonologik jihatidan funksional belgi bo'lib, bo'g'inlar va fonetik so'zlarni farqlaydi. Til ritmik, melodik negizining farqlovchi belgilaridan biridir.
 8. Prosodiya nutqning kommunikativ tabiatini belgilamaydi, biroq verbal kommunikatsiyaning prosessiya qandaydir ta'sir ko'rsatadi va boshqalar.

Umuman, prosodiyani hozirgi tovush tilining maxsus o'rganilmagan qatlarni deb o'ylash mumkin, prosodiya har bir og'zaki nutqning ritmik- melodik negizidik.

Bu tilning maxsus ekspressiv tomoni bo'lib, akustik korrelyati bilan og'zaki nutqning qandaydir hozircha no'malum xususiyatlarga egadir. Prosodiya tovush paychalari asosiy tebranishning vaqt davomidagi dinamik o'zgarishlari natijasida yuzaga keladi, uni quloq orqali sezish qiyin emas.

Har ikkala tilda ham inyonatsiyaning emotsional ahamiyati mavjud. Uning ikki komponenti mavjud:

1. Kommunikativ

2. Emotsional

Kommunikativ aspekt deganda, intonatsiya gapning tugallangan yoki tugallanmaganligini, gapda savol yoki javob ifodalanganini bildirishini tushunamiz. Boshqacha aytganda, intonatsiya gapni fonetik jihatdan shakllantiradi, gapning ma'no jihatdan turlarini aniqlaydi, gapni intonatsion guruhlarga bo'ladi, jumalarni bir- biridan ajratishga, gapdagi ma'nolarni qiyoslash va fikrlarga bo'lgan munosabatni ifodalaydi.

Masalan: Bu qiz band. This girl is engaged.

Bu qiz band. This girl is engaged.

Bu qiz band. This girl is engaged.

Yuqoridagi misollarda bir xil ma'no ifodalanmoqda, ammo intonatsiya natijasida grammatik darak, so'roq, undov gap turlariga ajratilgan.

Agar ushbu gaplardagi birorta so'zni mantiq urg'usi (logik urg'u) bilan talaffuz qilsak gapda ohang yordamida zarb urg'u bilan talaffuz qilinayotgan so'z "bu"- "u" so'zi bilan qiyoslanadi.

Intonatsiyaning ikkinchi aspekti uning emotsional funksiyasidir. Intonatsiyaning emotsionalligi nutq prosessida so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalash, jumladan ma'noni kuchaytirish, bo'rttirishda yaqqol ko'rinadi.

Semantik funksiya. Jumladagi har bir so'z ma'nosi intonatsiya yordamida oydinlashadi.

Modal funksiya. So'zlovchining o'z fikriga munosabati intonatsiya orqali ifodalanadi.

Ekspressiv funksiya. So'zlovchining boy ichki kechinmalari, tuyg'ulari fiziologik holati kayfiyati intonatsiya orqali aks etadi.

Pasayuvchi intonatsiyada emotsional-ekspressivlikning ifodalanishi

Gapni tashkil qiluvchi intonatsiyaning eng asosiy vositasi urg'u va melodikadir, ana shu intonatsion elementlar munosabatlarning turlicha bo'lishidan fonetik usulda emotsionllikning turli ko'rinishlari ham yuzaga keladi.

Masalan: past pasayuvchi ohang -Low- Fall- notiqning sovuqqonlik, farqsizlik, e'tiborsizlik emotsiyasini ifodalaydi.

Quyidagi misollarga murojaat etaylik.

I don't like such dress. -Bunday ko'ylak menga yoqmaydi.

They went out- Ular chiqib ketishdi.

Whom are you calling for? - Siz kimga tel qilayapsiz?

How are you going to the airport?- Siz qanday qilib aeroportga bormoqchisiz?

Are you certain he'll help?- Siz uning yordam berishiga ishonasizmi?

Can you translate this article? - Siz bu maqolani tarjima qila olasizmi?

What unexpected pleasure!- Qanday baxtli tasodif!

Fancy meeting you here- Sizni bu yerda uchratish tushimga ham kirmagandi.Mazkur har ikkala tilda berilgan misollar deyarli his- hayajonsiz talaffuz qilinadi, chunki past- pasayuvchi ohang emas, bu ohangda sovuqqonlik, befarqlik, e'tiborsizlik hatto adovat anglashiladi.

So'zlovchining yorqin jozibali, ruhlantiruvchi, kishi e'tiborini o'ziga tortadigan ohang baland- pasayuvchi ohangdir.

Someone has finished the work. - Allaqachon kimdir bu ishni tugatgan.

We'll go there next week.- Kelgusi hafta biz u yoqqa boramiz.

They'll come to Tashkent next month.- Kelgusi oy ular Toshkentga keladilar.

Why does she reject to dance?- Nima uchun u raqsga tushmoqchi emas?

What time do you speak to them?- Qachon siz ularga gapirasiz?

Does she understand the German language?- U nemis tilini tushunadimi?

Can't they arrive there right now?- Nahotki ular hozir o'sha yoqqa yetib borolmaydilar?

Don't get excited!- O'zingizni erkin his qiling!

How terrible! So, I see! - Bu dahshat. Tushunaman!

Misollardan ko'rinadiki, baland pasayuvchi ohang so'zlovchining ta'kidlash, po'pisa, qattiq hayratlanish, xursandlik kabi hissiyotlarini yaqqol ifodalagan.

Ko'tariluvchi- pasayuvchi ohang orqali so'zlovchining ta'kidlash, po'pisa, qattiq hayajonlanish, xursandlik, xafalik, emotsiyalarini ifodalaydi.

Did you have a nice rest?- Siz yaxshi dam oldingizmi?

I had marvellous time!- Ajoyib dam oldim!

Will you kindly help me?- Siz menga yordam berolmaysizmi?

With pleasure! - Jonim bilan! Bajonidil! Sidqidildan.

Yuqoridagi gaplarda xursandlik hissiyoti ifodalanayapti.

Shunday qilib, tilda pasayuvchi intonatsiyaning 3 turi borligi qayd etiladi.

Past- pasayuvchi- Low Fall.

Baland- pasayuvchi- High Fall.

Ko'tarilib- pasayuvchi- Rise Fall.

Demak, pasayuvchi ohanglar bir-biriga o'xshash hissiyotlarni ifodalaydi. Endi o'zbek tilida shu hodisaga diqqatni qaratsak, unda tilda juda ko'plab fonostilistik vositalar mavjudligini ko'ramiz. Jumladan, poeziyada tovush, bo'g'in, urg'u va intonatsiyaning ahamiyati kuchlidir. Badiiy asarlarda intonatsiyaning savol, xitob, darak, kinoya, g'azab, ta'kid, oksinish, ogohlantirish, qo'rqish, hayratlantirish va boshqa ko'rinishlari uchraydi.

Turli xil intonatsiya bilan aytilgan undov, modal va kirish so'zlar xilma- xil his-tuyg'u va kayfiyatni ifodalashi mumkin.

Turli xil jest, mimika yordamida quvvatlanib talaffuz qilinayotgan bunday so'zlarda his- tuyg'u nihoyatda kuchli ifodalanadi. Intonatsiya elementlaridan biri pauzadir. U ham og'zaki nutqda muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi. Tinglovchining diqqati nutqdan qaysi so'zga qaratilmoqchi bo'lsa o'sha so'z pauza orqali aytiladi.

Shoir X.Olimjon qalarniga mansub quyidagi misralarga diqqat qilaylik.

Mulkobodda eng qari odam,

Hech rohat ko'rmagan meskin, bechora

Chorakor, mardikor, yetim , qul, cho'pon.

Bu parchaning oxirgi misrasidagi besh so'zning hammasi ham Mulkoboddagi cholning ayanchli o'tmishini ko'rsatuvchi sinonim so'zlardir.

Bunday so'zlar orasidagi pauzalar orqali shoir o'quvchi diqqatini shu asar voqeasiga musiqiy yo'l bilan to'la jalb qila olgan.

Yoki ingliz tilida quyidagi misraga diqqat qilaylik.

Men of England, wherefore plough,

For the lords who lay yellow?

Wherefore weave with toil and care,

The rich robes you tyrants wear?

Ushbu misralarda har bir jumla oxiriga nuqta yoki orqasiga vergul qo'yish bilan pauzaning uslubiy xususiyatlari yorqin ifodalangan.

Nutq oqimini ma'noli bo'laklarga ajratish va shu asosda mazmun ifodalash pauzaning o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi.

Chog'istirish: O'lim, shafqat yo'q,- o'lim yo'q, shafqat kabi

Inntonatsiya fonostilistik vosita sifatida gap urg'usi bilan ham bevosita bog'langan bo'ladi.

Gap yoki intonatsion urg'u gapdagi urg'u gapdagi so'zni mazmun jihatdan ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Intonatsiya nutq uslublariga ko'ra ham farqlanadi. So'zlashuv nutqida intonatsiya mo'tadil bo'lsa, publisistik nutqda esa ko'tarinki, tantanavor bo'ladi.

Uslubiy jihatdan intonatsiya ta'sir etish vazifasidan tashqari ma'lumot berish vazifasini ham bajaradi. Jumladan, intonatsiyaning o'zgarib borishi so'zlovchining ruhiy holati haqida ma'umot beradi. So'zlovchi nutqining mazmuni uning maqsadi ifodasi sifatida shakllanadi, intonatsiya esa mazmunning obyektiv yoki subyektivligi haqida ma'lumot beradi¹.

¹ Иўлдошева .Ҳ. Интонациянинг темпорал компонента ҳақида II “Ўзбек тили ва адабиёти”, - Тошкент, - №5 —Б.46.

Intonatsiyaning emotsional jihati asosan, konnotativ ma'no ifodalaydi. Konnotativ ma'no denotativ ma'no ustiga yuklangan bo'ladi. Intonatsiya so'zlovchining nutqiga ma'lum uslubiy bo'yoq berishda muhim vosita ham sanaladi.

So'zlashuv nutqi uslubida intonatsiyaning uch tipi uchraydi: grammatik - sintagmatik, logik- ekspressiv, emotsional - ekspressiv.

Bulardan emotsional- ekspressiv intonatsiya ham tuyg'uning kuchli ifodalanilashi aniqlandi.

Buni quyidagi misollarda yaqqol ko'rish mumkin:

Stimulus:

Response:

- | | |
|---|---------------------------|
| 1. It's eight o'clock. | 1. Heavens (I'm late) |
| 2. When are you coming to France again? | 2. Foolness, knows! |
| 3. She's broken a hand. | 3. How awful! |
| 4. Tom's passed his examination. | 4. What a wonderful news! |

Stimulus:	Response
Have you heard about pat?	Yes (Isn't it seandalous)
How long did you stay on your diet?	Weeks, months, years (never)
Must she type it out again?	Obviously she must (It's full of mistakes)
I'd like to help	But it's impossible

Keltirilgan misollar tahlil qilinganda, ularda asosan hayratlanish ma'nosi ifodalangan. Ularda asosan ko'tarilib- tushuvchi Rise - Fall Intonation ishlatilgan.

Xullas, yuqoridagi gaplarda emfatik urg'u asosiy o'rinda bo'lib, aniq emotsiyalarni ifodalagan keyingi qisqa 3 ta gapda so'zlovchining emotsional holati ifodalanadi.

Stimulus:

Response:

1. You'll have to accept

1. Why?

2. You could surely find the money somewhere.

2. Where?

3. I know it for a fact.

3. How do you know

4. I'm terribly, worried about it.

4. Why should it worry

you?

5. How about phoning them?

5. What's the good of doing that?

Keltirilgan misollardan shu narsa aniq bo'ladiki, har bir emfaza konteksga sezish va emotsiyalar bag'ishlayadi.

Intonatsiya bilan bog'liq holda urg'u ham nutq zanjirini tashkil etishda muhim fonostilistik vositadir. Urg'u ma'lum bir so'zni to'g'ri talaffuzini belgilash bilan birga, uning stilistik bo'yoqdorligini ham ko'rsatadi.

Urg'u orqali ko'pincha ma'no bo'yog'ini hosil qilishda ohang asosiy rol o'ynaydi. Bunda so'zning denotativ ma'nosi o'zgarmay, turli konnotativ ma'nolar hosil bo'ladiki, bu o'z navbatida uslubiy rang-baranglikni vujudga keltiradi.

Emfatik urg'u gapning biror bo'lagi yoki bo'laklariga so'zlovchining kechinmasi, hayajoni, subyektiv munosabati kabilarning yuklatilganligini ko'rsatuvchi intonatsion qismdir. Uning logik urg'udan farqi shundaki, logik urg'u tinglovchining o'z subyektiv munosabati qaratilgan bo'lakni ajratib ko'rsatish vazifasini o'taydi.

Logik urg'u gapda bir bo'lakka tushadi, emfatik urg'u bir necha bo'lakka hatto gapning ma'lum bir sostaviga tushadi. Logik urg'uda tovush kuchi asosiy o'rinda turgani holda, emfatik urg'uda tovush cho'ziqligi asosiy o'rinda turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, nutq jarayoni uzviy bir zanjirdan iborat. Ana shu zanjirni hosil qilishda ikki xil birlik ishtirok etadi: tovush (fonema) bo'g in, so'z- segment va shu birliklar asosida hosil bo'luvchi urg'u ohang kabi, supersegment birliklar. Bu birliklarning uzviy bog'liqligini yuqorida imkon qadar tahlil qilishga harakat qildik.

Gap urg'usi logik urg'u deb ham yuritiladi. Logik urg'uning qaysi so'zga tushish, so'zlovchining maqsadi va niyatiga bog'liq. So'zlovchi uchun muhim bo'lgan so'zning ma'nosini kuchaytirish uchun u alohida ohang bilan aytiladi.

1- Sentabr- Mustaqillik bayrami.

1- Sentyabr- Mustaqillik bayrami.

1- Sentyabr- Mustaqillik bayrami.

So'zlardagi urg'uning ko'chishi bitta ma'noning ham o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik kerak.

Masalan:

Olma so'zi. Bu so'zni alohida urg'usiz olib qaraganda, uning qanday ma'noda qo'llanilayotganini aniqlash qiyin.

Agar 1- bo'g'inga tushsa harakat olma; 2- bo'g'inga tushsa mevaning bir turi olma'.

Nutqda segment birliklar birlamchi hodisa bo'lishiga qaramay, nutq jarayonida supersegment birliklarga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Ularning ma'lum darajada o'zgarishiga olib keladi¹. Bu haqda fikr yuritganda albatta intonatsiyaning temporal xususiyati haqida ham fikr yuritish maqsadga muvofiq.

Vaqt- bu falsafiy hodisa intonatsiyaning vaqt, ya'ni temporal komponenti muhim komponentlardan biridir.

Temporal komponent, ayniqsa, yaqin bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida juda muhimdir. Har ikkala tilda temporal komponent bosh intonatsion vosita vazifasini bajaradi. Temporal komponent so'z urg'usining ham muhim komponentidir².

Temporal komponent gapning kommunikativ tiplarini farqlaydi. Masalan: So'roq gap buyruq gapga nisbatan davomiy talaffuz qilinadi.

Bunda quyidagi gaplarni chog'ishtirib ko'ramiz.

Past pasayuvchi intonatsiya.

1. What country do you come from Italy.
2. How many grandchild have you got? - Ten.
3. What meet do you like best ? Beef.
4. Which subject do you prefer? Maths.
5. How long will you stay here?

I'll stay in town until early lunch time .

¹ . Вобохорова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. Тошкент. "Укитувчи" 1995. – Б. 140

² Златустова Л.В. Интонация и просодия в организации текста. Звучающий текст, Сб анализ образов 1983. - С.11-21

Are you with your family here? Yes, of course.

6. Do you think he has forgotten?

I'm sure he hasn't.

Umumiy so'roq gaplarda.

I think, you'll like it Will?

-It all depends on mood. Does it?

-You can't possibly lift that. Can't I?

I'm going to Italy tomorrow. Are you indeed?

-I expect he'll help. Can you find out? He turned me down flat. Would it be any good my trying to persuade him.

-Bother. I've forgotten to tell Frank.

Does it matter all that much.

Buyruq gaplarda

Would you mind calling your dog?

Down.

How can I get in touch with Miles?

Phone me. I've finished that. - Now, repeat the process.

How long can I have it for? Keep it for as long as you like.

Hurry up, Molly! Don't rush me, Tom.

I don't want your help. Do it yourself then.

Temporal komponentning xizmati shundaki, temporal komponent tovush va bo'g'inlar soniga bog'liq, ikkinchidan gapning kommunikativ tiplarini farqlaydi. Uchinchidan, temporal komponent cho'qqisi jumladagi informatsion markazni ifodalaydi. To'rtinchidan, temporal cho'qqidan keyin pauza uchraydi, temporal cho'qqi urg'uning hamma turida goh yetakchi, goh doimiy komponent sifatida ishtirik etadi.

Shunday qilib, nutq zanjirida yaxlit akti yuzaga keltiruvchi intonatsiya, pauza hamda urg'u uslubiy vazifa bajaradi. Supersgment elementlarning har biri nutqda alohida vazifani bajarish bilan birga, uch supersegment elementlar: intonatsiya, pauza va urg'uning nutq zanjirida bir vaqtda kelishi kuchli konnotativ ma'noni ifodalayadi.

2.2. Pauzaning fonostilistik imkoniyatlari.

Kishilar orasidagi aloqa aralashuvidagi pauza noverbal informatsiya vositasi, uslubiy figura sifatida ishtirok etadi va situativ, ijtimoiy hamda psixologik omillar bilan bog'liq holda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Pauzada tinglovchi diqqatini tortish, araz, kinoya kabi qator qo'shimcha ma'nolar ifodalanadi.

Nutqimiz tinimsiz oqimdan iborat emas. U doimiy ravishda ma'lum bir omillar bilan bog'liq holda bo'linib turadi. Nutqdagi bunday bo'linishlar pauza orqali ro'yobga chiqadi. Nutq jarayonida pauzaning nechog'lik ahamiyatli ekanligini pauzasiz nutqni tasavvur qilib ko'rish orqali anglash mumkin. Pauza intonatsiyaning muhim komponentlaridan biri bo'lib, u intonatsiyaning boshqa komponentlari, ayniqsa akustik komponentlari bilan o'zaro bog'liqdir. Shu bilan birga pauza qilish uchun boshqa omillar ham ta'sir etadi¹.

Pauza bir tomondan nutq jarayonidagi artikulyatsion-akustik to'xtam ikkinchi tomondan, ya'ni grammatik jihatdan, bir sintagmani boshqasidan ajratish va ularni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Uchinchi tomondan u yoki bu emotsional holatlarni ham ifodalaydi. Shu bilan birga fiziologik jihatdan nutq uzvlariga dam olish imkonini beradi. Pauzada fiziologik, akustik, lingvistik jarayonlarda uzilish sodir bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, ayrim olimlar pauzani intonatsiyaning komponentlari sirasiga kiritmaydilar. Ammo, fiziologik jarayondagi uzvlarining dam olishidan, akustik jihatdan to'lqinlarning yo'qolishidan ham til yoki bu mazmunni ifodalashga ustalik bilab foydalanadi. Pauzaning lingvistik funksiyasi bir jumladan ikkinchisini ajratishda, jumla ichida esa sintagmalarni bir-birida ajratish va ularning bog'liqligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Intonatsiyaning u yoki bu akustik komponentlari pauzaning sodir bo'lishida muhim o'rin egallaydi. Jumladan, pauzadan oldin melodik va dinamik bo'linish sodir bo'ladi. Pauzadan oldin ton tushuvchan harakterda bo'ladi.

Masalan: Borsak / qayerda turamiz. Where / do we stay?

Pauzaning yuzaga kelishida bir qator faktorlar mavjud:

¹ Абдуазизов А. Узбек тили фонологияси ва морфонологияси.// Тошкент. Ўқитувчи 1992. – Б.134.

1. Fonetik yoki akustik faktor

Pauzadan oldin temporal cho'qqi sodir bo'ladi. Chunki mazkur bo'g'inda sintagmatik urg'u tushadi.

Sintagmatik urg'u uzunlikning uzayishi bilan ifodalanadi.

Masalan: Do'stingizni / kutmadingizmi? Aren't you / waiting for your friend?

2. Grammatik faktor.

Pauza ma'lum grammatik vositalar bilan bog'liq holda sodir bo'ladi.

Egadan keyin: Adolatxon / ishdalar.

To'ldiruvchidan keyin: Kim o'zini /yomon ko'radi?

Undalmalardan keyin uchraydi. Oyi / Uni tanidingizmi?

Pauza kirish so'zi, kirish birikma, kirish gaplaridan keyin uchraydi.

Balki / sizni ketishingizni bilmas.

3. Informatsion faktor.

Pauza informatsiya jihatdan muhim bo'lgan so'zdan oldin ro'y beradi. Chunki pauza mazkur so'zni boshqa so'zlarga nisbatan davomliroq talaffuz etishga zamin hozirlaydi, kuch to'plashga, o'ylab ko'rishga imkon beradi.

Uyda uni / kim kutib o'tiribdi?

Mazkur jumla so'roq jumla bo'lganligi uchun so'roq vositalari information jihatdan muhim sanaladi. Shuning uchun ham ulardan oldin pauza qilinadi.

Informatsiya bilan bog'liq bunday pauzalar "uzitatsion pauza" deyiladi. Pauzaning lingvistik funksiyasi uning miqdorida ham ko'zga tashlanadi. Pauza bilan ajratilgan qismlar orasidagi bog'lanish yaqin bo'lsa, pauza shuncha qisqa, aksincha bog'lanish uzoq bo'lsa, pauzaning miqdori shuncha davomli bo'ladi. Kitobni / nega o'qimadingiz?

Mashinani / nega to'xtatdingiz?

Shu bilan birga nutqning yozma shakliga xos bo'lgan tinish belgilari ham og'zaki nutqda turli miqdordagi pauzalar yordamida ifodalanadi. Vergulni ifodalash uchun ishlatiladigan pauzalar lingvistik funksiyalariga ko'ra har xil bo'lishi mumkin. Sanash uchun qisqa pauzalar, his-hayajon undovlaridan keying undalmalardan va kiritmalardan, keyingi pauzalar miqdori esa davomli bo'ladi.

Hoy / sening oting nima? Undov so'zdan keyingi pauza miqdori ancha uzaygan.

4. Semantik faktor.

Pauza ma'no farqlash xususiyatiga ega. Pauza yordamida jumlaning ma'nosi o'zgarib ketishi mumkin. Jumladan, Bu / shifokor Karimaxonning do'sti. Ushbu jumlada Karimaxon shifokor.

Yuqoridagi faktorlar nasriy asarlardan olingan misollar asosida tahlil qilinadi. Poeziyada ham pauzaning ahamiyati nihoyatda katta. Ular she'riyatda oddiy nutqqa qaraganda ikki baravardan ham ortiq uchraydi. Jumladan, ritmik pauza misrada yetishmagan bo'g'in, so'z yoki jumla o'mini qoplaydi, ma'no va vazifa uyg'unlashib, cho'ziqlik hosil qiladi. She'riy misra o'rtasida kelgan pauzalar uni bo'laklarga bo'ladi yoki so'z brikmasining ma'nosi, mohiyatini ta'kidlash vazifasini o'taydi. She'riy misra o'rtasida kelgan pauzalar uni bo'laklarga bo'ladi, bu bilan alohida so'zlar yoki so'z brikmasining ma'nosi mohiyatini ta'kidlash vazifasini o'taydi. She'riy nutqqa kuchli bosim va to'lqinlanish ba'g'ishlaydi.

Shunday qilib, pauza gap ichida sintagmalar hosil qilib, uning maqsad va mazmuniga ta'sir qiluvchi fonostilistik vositadir. U og'zaki nutqda muayyan til (nutq) birliklarini ta'kidlash, ayirish, kuchaytirish diqqatni tortish kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Pauza barcha janr asarlarda badiiy ta'svirning muhim fonostilistik komponenti bo'lib xizmat qiladi.

Pauza intonatsiyaning bir komponenti sifatida poeziyada turli emotsiyalarni ifodalasa, prozaik va drammatik asarlarda personajlarning ruhiy holatini, nutqiy xarakteristikasini aks ettiradi.

Intonatsiya ko'p komponentli bo'lib, uning tarkibiy qismlari quyidagilardan tashkil topgan. Ulardan ohang, gap urg'usi, pauza, sur'at, ritm va tembr (tovush sifati) kiradi: Ularning har qaysisi o'ziga xos moddiy (fiziologik-akustik) xususiyatlar va lingvistik (fonologik funksiyaga) ega¹. Endi nutqda biz ularning har biri haqida alohida to'xtalamiz.

¹ Бондалетов В. Д. Стилистика русского языка. J1. 1999.-С. 223.

Ohang -intonatsiyaning asosiy komponentlaridan biridir. Ohang turli tillar materialida eksperimental o'rganilgan.

Yevropa tilshunosligida olimlardan O.A.Nerx, K.B.Karpov, O.X.Saker, N.D.Svetozarova, N.Avazboyev, F.Y.Veysalov, chet ellik germanistlardan O.Fon Esser, E.Shtak, X.Soxarkas, Kumati kabilar ohang intonatsiyaning eng asosiy komponentlaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar.

Ohang odatda fikrning tugallangan yoki tugallanmaganligini, gapning kommunikativ tiplarini farq qilish uchun xizmat qiladi.

Pauza yuqorida ta'kidlaganidek, nutq oqimidagi to'xtash, uzilish demakdir. uning muzika asarlarini ijrosida va tovushlarning muayyan vaqt to'xtalishi hamda shu vaqtni ko'rsatuvchi maxsus belgi ma'nosi ham bor.

Pauzaga xos lingvistik xususiyatlar rus tilshunosligida bir qadar o'rganilgan. Ammo ingliz va o'zbek tilshunosligida bu hodisa semantik-stilistik planda deyarli o'rganilmagan.

O'zbek tilshunosligida pauzaning sintaktik xususiyatlari til tadqiqotchisi Halima Yo'ldosheva tomonidan bir qadar o'rganilgan. U o'zining "So'roq gaplarda pauza" maqolasida so'roq gaplardagi pauzaning o'mi va miqdoriy xususiyatlarni aniqlagan. Pauzaning mazmun bilan bog'liq hodisa ekanligi aniqlagan.

Pauzalar nutqdagi sintagmatik va katta pauza psixologik pauza va nutqni to'g'ri bo'lishi va ma'no jihatdan bog'lash uchun katta ahamiyatda ega, ya'ni ular nutqda asosan konstitutiv funksiyani bajaradi.

Bundan tashqari turli talaffuzlar ular fizik jihatdan ifodalanmasligi ham mumkin, buning uchun ikki bo'g'in o'rtasidagi ohang intervali ham kifoya. Demorkativ va distinktiv funksiyalarni ham bajara oladi.

Pauzaning distinktiv funksiyasi shunday iboratki, u qayerda kelishiga qarab gapdagi mazmunga ta'sir qilishi mumkin.

Gapning sintagmatik bo'linishi uning umumiy mazmunini belgilamaydi. Pauzaning demorkativ funksiyasi matn, gap va ularning tarkibiy qismlari o'rtasidagi chegarani ifodalash uchun xizmat qiladi.

Demak, pauzalarning hajmi va ko'pligini matn va gapning mazmunini aniqlaydi.

Pauzalar she'riy nutqda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular she'riyatda oddiy nutqda qaraganda ikki baravardan ham ortiq uchraydi.

Ritmik pauza (nutqda) misrada etishmagan bo'g'in, so'z yoki jumla o'mini qoplaydi. She'riy frazalar o'rtasida kelgan pauzalar uni bo'laklarga bo'ladi, bu bilan alohida so'zlar yoki so'z birikmasining ma'nosi mohiyatini ta'kidlash vazifasini bajaradi.

She'riy nutqda bosim va to'lqinlanish bag'ishlaydi¹. Ushbu holat bilan bog'liq ikki tilda ikki she'riy parchani keltiramiz.

Ingliz tilida ritmik pauza yetishmagan bo'g'in, so'z va jumla o'rnini qoplaydi, ma'no vaznda uyg'uylashib cho'ziqlik hosil qiladi.

-Oh!

Nonsense!

There is a clean boy!

That's a good girl!

What wonderful news!

Not in the least!

Hark, hark! The dogs to bark!

The beggars are coming to town;

Some in rags! And some in tags!

And one in a velvet gown.

O'zbek she'riyatida ham pauzalar nutqqa bosim va to'lqinlanish berishini kuzatish mumkin.

Bu yo'llar

Ko'p qadim yo'llardir.

Jahoning fотиhi Iskandar.

Rum qaysari

Qotil Chingiz, Botu, Jo'ji.

¹ Айдарова В. Н. Фонетические средства стилистики. - Л., 1971. -С. 359- 364.

Ushbu she'ni yozishda G.G'ulom adabiyot janrlaridan biri erkin vazndan foydalangan, she'riy misralarining zinapoyalriga bo'lib yozilishi va yirik pauzalar bilan ajratilishi his tuyg'u, ohangning kuchli ifodalanganligini ko'satadi.

Demak, pauzalar nutqda ma'lum uslubiy vazifa bajaradi, bu nutqda jozibadorlik baxsh etadi:

Shunday qilib, pauza nutqiy jarayonda konnotativ ma'no ifodalaydi, u supersegment vositalar ohang urg'u, bo'g'in hodisasi bilan chambarchas bog'liq.

Konnotativ ma'noning pauza orqali ifodalanishi.

Umumtilshunoslikka konnotativ ma'noning leksik va grammatik vositalarda ifodalanishi va uslubiy qo'llanishi haqida qator ilmiy ishlar yaratilgan. Bu hodisa tilshunoslikning keyingi davrida semosilogik tadqiqotlar bo'yicha ilmiy ishlarga e'tibor kuchayganligini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda tilshunoslikda fonastilistika masalalariga e'tibor qaratilayotganligini ham uchratish mumkin. Bu sohada olib borilayotgan ilmiy ishlar shuni kursatadiki, fonostilistikada faqat nutq tovushlari tallafiizi va yozilishi bilan bo'liq uslubiy xususiyatlar emas, balki supersegment fonetik vositalar: intonatsiya, pauza, urg'ular bilan bog'liq konnotativ ma'nolarni ochib berish, ularni tahlil qilish ham muhima hamiyat kasb etadi:

Konnotativ ma'no, uning ingerent va adgerent ko'rinishlarining nutqiy jarayonda ro'yobga chiqishi turli fonetik vositalarda turlicha xarakter va xususiyatga ega¹. Ayniqsa, nutqdagi supersegment elementlar: urg'u, intonatsiya, bo'g'in va pazuada yaqqol namoyon bo'ladi. Demak, fonetik uslubiyotda konnotativ ma'noning fonetik til birliklarida ifodalanishi, nutqning vazifaviy uslublari, ularning artikulyatsion-akustik va prosodik xususiyatlarini aniqlash, orfoepiya bilan bog'liq tallafuz stillari, ya'ni turli-sharoitda o'zaro farqlanuvchi tallafuz ko'rinishlari va hodisalarining uslubiy vazufasini belgilash muhimdir. Shu o'rinda tilshunos olim M.Mirtojiyevning quyidagi fikrini keltiramiz: "Urg'ular tildagi supersegment element hisoblanadi. Supersegment element to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuvchi, ya'ni segment (asos) element ustiga

¹ Иўлдошев Б. Бадий нутк стилистикаси.-Самарканд, 1982.

qurilgan ifoda elementidir... Intonatsiya ma'lum tildagi gaplarning talaffuz etilishi me'yori esa supersegment element hisoblanadi”¹.

Uni sistematik bayon qilish mumkinligi haqida ikki fikr mavjud.

Birinchidan, intonatsiya nutq kontekstiga bog'liqligi sababli uni sistematik o'rganish va bayon qilish mumkin emas (Adolf 1944, Peshkovskiy 1959).

Ikkinchi fikr tarafdorlari esa intonatsiyani sistematik bayon qilish mumkin, ammo u grammatikaga va segmental fonologiya birliklariga nisbatan ikkinchi darajali hodisa deb hisoblaydi. (Martin 1968) Amerika diskriptivistlarni ham intonatsiyani fonologik tahlilga kiritish ham, unga ikkinchi darajali birlik deb qaraydi.

Masalan: L. Blumfeld (1962) birlamchi segmental va ikkilamchi (supersegmental) birliklarni farqlaydi.

Praga fonologik maktabi vakillarining fikricha (Vedraj 1960, Matezius 1947) intonatsiya ikki funksiyani bajaradi.

Birinchi sintaktik funksiya bo'lib, u asosiy hisoblanadi, intonatsiyaning ekspressiv funksiyasi esa ikkinchi darajalidir.

So'zlovchining emotsional holati va his-hayajonini ifodalash funksiyasi so'z lingvistik ma'nolarga kirmaydi. Bularni ikkinchi darajali ekstra lingvistik funksiyalar deyish mumkin (Trubetskoy 1960, Zinder 1978).

Pauzaning bo'g'in hodisasi bilan bog'liqligi va ularda ifodalangan uslubiy xususiyatlari.

Bog'in hodisasi fonetikaning sillabika (bo'g'in) va intonatsiya bilan shug'ullanuvchi tarmoqlari badiiy adabiyot bilan nihoyatda bog'liq, chunki she'riy asarlarning vazn va turoqlari shular vositasida shakllanadi. Endi, bevosita sillabika haqida fikr yuritadigan bo'lsak, sillabika uslubiy nuqtai-nazardan nafaqat segment, balki supersegment (talaffuz bilan bog'liq) tomonlari element bo'la oladi, deyish mumkin. Ayrim so'zlar talaffiizi bilan bog'liq konnotativ ma'no real aks ettirish uchun ular bo'g'inlarga ajratib aytiladi va yoziladi.

¹ Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. - Тошкент. 1991. – Б. 62.

Bunday bo'g'inlarga ajratilgan har bir bo'lak(qism) o'ziga xos urg'uga ega ekanligi bilan ajralib turadi shunday ekan, urg'u bilan bo'g'in uslubiy jihatdan bir- biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Bo'g'in bir yoki bir necha tovushlardan iborat bo'lib, bir nafar zarbi bilan aytiladigan taktning bir qismidir¹.

So'zlarni talaffuz qilganda havo goh kuchsizlanib, bog'in hosil qilinadi. So'zda hosil qilingan bo'g'inlar bezagi nutqda turli ohang bilan aytiladi. Bo'g'inlab talaffuz qilingan so'zlarda esa, asar qahramonlarning turli his hayajon va tuyg'ularini ifodalovchi qo'shimcha konnotativ ma'nolar hosil bo'ladi.

Bunday konnotativ ma'nolar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Biror ish harakatning bajartirish yoki bajartirmaslik bilan bog'liq intensivlik, qat'iyat ma'nosi:

Masalan: Ishga bormaydi. He does not go to work.

2. Belgining me'yordan ortiqqligi, kuchiilagini ifodalash uchun belgi bildiruvchi sifatlarning birinchi bo'g'inlari ya'ni orttirma daraja bosh bo'g'inning oxirida p,m tovushlar ortirilib,talaffuz qilinadi.

Chog'ishtiring qizil, qip-qizil, sariq, sap-sariq, ko'k, ko'm-ko'k, yashil, yam-yashil; red-redish, yellow-yellowower, green-greener.

3. Intensivlik, ta'kidlash uqtirish kabi konnotativ ma'nolarni o'ta kuchli ifodalash lozim bo'lgan lahzalarda belgi bildiruvchi sifatlarning birinchi bo'g'inidagi unli tovushni cho'zib tallaffuz qilish ham mumkin: qi-ip-qizil, ko'-o'm-ko'k, qo-op- qora.

Ammo yuqorida qayd qilingan ikki holatni bir kontekstda qo'llab bo'lmaydi. Chunki belgining nihoyatda ortiqlik darajasi fonetik usulda berilgan so'zlarda o'ta kuchli ifodalanadi.

Personajlar nutgida nafaqat ayrim so'zlar, balki to'liq gaplar ham bo'g'inga ajratilib alohida pauza, urg'u va intonatsiya bilan aytilishi mumkin. Bunday

¹ Абдуллаев А. Маъно кучайтиришнинг фонетик усули II Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 1969. - № 2- Б. 55-58.

holatda so'zlovchining ichki hayajoni yoki iztirobining nihoyatda cheksizligi kabi qo'shimcha ma'nolar qo'shiladi¹: Hazrat a-mi-rimiz keldilar (S.Ayniy)

Bilmay-man!-dedim jonim xalqumimga kelib (O'.Hoshimov)

Shunday qilib, bo'g'in segment element bo'lishiga qaramay, uni supersegment elementlar intonatsiya, pauza va urg'u qatorida o'rganilishi kuchli konnotativ ma'nolarni ifodalaydi.

Pauza bilan bog'liq fonostilistik vositalardan biri kontaminatsiya hodisasidir. Kontaminatsiya so'zining ma'nosi chatishish, qo'shilish bo'lib, lingvistik jihatdan yangi so'z va yangi ma'no hosil qilish bilan bog'liqdir².

Ingliz tilida nutq jarayonida alohida so'zlar, alohida gap bo'lib ishlatiladi va ular pauzalar bilan ifodalanadi.

Har bir to'xtash (pauza)ga ma'lum uslubiy bo'yoq hosil qilinadi.

Masalan: yes, no, doesn't, where? Nonsense! Good kabi so'zlar bir so'z bo'lishi bilan ma'lum fikmi ham ifodalaydi, hamda ushbu so'zlardan keyingi kelgan pauza ma'lum uslubiy vazifa bajaradi.

Kimlardan, so'roq, tasdiq, inkor, rad etish, behuda gapirish, yaxshi fikmi bayon etish anglashiladi. Chunki har qanday gap ko'pmi o'zini ma'lum ma'noga ega bo'ladi, u yo holatni yoki vaziyatni, so'roq yoki buyruqni yo bo'lmasa so'zlovchining hayajonini ifodalaydi.

Masalan: Lately /I have translated much books

As I suit / she was well-known charming.

In addition to this / he had a fine musical taste / carefully cultivated

Two or three years ago / we had a very hard winter

Stand here out of the rain / while I get a taxi

Yuqoridagi tahlil qilingan gaplarda pauzali holat ishlatilgan bo'lib, bunda pauza uslubiy vazifa bajargan va gap mazmuniga ta'sir ko'rsatgan, chunki qanday gapda pauzali holat ishlatilsa, unda albatta uslubiy rang-baranglik bo'ladi.

¹ Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвири воситалари//. Укув қўлланма.-Самарканд. СамДУ,1994.

² Баришникова К. О. Лингвистическом аспекти фоностилистических исследований. (Звуки, слоговый акцент, интонация).- Вильнюс, 1972. -С. 267-278.

Ko'pincha nutq sur'atining o'zgarishi pauzalarning uzunlasguvi yoki kaltalashuvi bilan murakkablasha borishi kuzatiladi. Qattiq asabiy, ruhiy holat nutqi jarayonida turli to'xtamlar keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlar o'g'zaki nutq uslubida, shuningdek badiiy adabiyotdako'p uchraydi.

Badiiy adabiyotda ko'pincha dramatik asarlarda uchraydi va pauzada personaj nutqini alohida individuallashtirishga xizgan qiladi.

Shunday qilib, pauza noverbat inforsiya vositasi bo'lib, u nutqda uslubiy vazifa bajaradi.

Nutq jarayoni uzviy bir zanjirdan iborat. Ana shu zanjirni hosil qilishda ikki xil birlik ishtirok etadi: tovush (fonema), bo'g'in, so'z segment va shu birliklar asosida hosil bo'luvchi urg'u, pauza, ohang kabi supersegment birliklar¹. Bu birliklar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Nutqda, segment birliklar birlamchi vosita hodisa bo'lishiga qaramay, nutq jarayonida supersegment birliklar ma'lum darajada ta'sir qiladi, ularni ma'lum darajada o'zgarishiga, uchrashga olib keladi. Ana shunday segmentga ta'sir qiluvchi supersegment birliklardan biri pauzadir. U supersegment birlik bo'lsada, segmentga, ayniqsa fikr mazmunini ifodalovchi gapga ta'sir ko'rsatadi.

Pauza intonatsiyaning ajralmas bir komponenti bo'lib, unga xos-xususiyatlar rus tilshunosligida V.A.Artyomov, I.A.Svetazarova, E.A.Brizgunovalar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Intonatsiya va uning pauza bilan bog'liq holda nutq zanjirini hosil qilishi haqida ham ingliz tilshunosligida talaygina fikrlar bildirilgan.

Jumladan, A.Abduazizovning "Theoretical course of English phonetics" asarida pauza haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Intonatsiya va pauza og'zaki nutqga xos bo'lib, alohida bir sistema tashkil etadi. Nutq melodikasi va ritmi nutq tezligi va tembr, logik urg'u bilan intonatsiyaning tarkibiy qismlari bo'lganidan, bularning barchasi superegment hodisalar sanaladi va doima nutq tarkibida yashaydi.

Nutq tezligi, uning talaffuz jarayonida gap tarkibidagi talaffuzga sarflangan vaqt bilan o'lchanadi.

¹ Виноградов В. В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. - М: 1977.

Gapning har bir bo'lagi tezligi turli kommunikativ (aloqa) turlariga har xil bo'ladi. Masalan darak gap boshida kelgan ega gap tezligiga ko'ra sekinroq boshlanib, kesim tarkibidagi maksimum darajaga yetadi. Undov gaplar esa hayajonli belgiga ega bo'lganligi uchun, baland tovush bilan talaffuz etiladi. Ammo tezlik pasayadi. Nutq ohangi gapdagi so'zlarning baland yoki past talaffuz etilishi sistemasidir¹.

Bunda pauza ham nutq jarayoni sifatida ishtirik etadi va uslubiy vazifa bajaradi. Shu sababli pauzali gaplarda ohang ham boshqacha bo'ladi, darak gaplar ohangi so'roq, pauzali gaplar ohangi tubdan farq qiladi.

Xuddi shuningdek, so'roq gapga nisbatan davomli talaffuz etiladi. Ajratilgan gap bo'laklari, undalma kirish so'zlar og'zaki nutqda ohang bilan ajratiladi va yozma nutqda tinish belgilari bilan ajratib yoziladi.

Vokativ gaplarda intonatsiya asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi, pauza esa uslubiy vazifa bajarish bilan ushbu gaplarda ishtirok etadi. Bu tipdagi gaplarda fikr emotsiyalar faqat intonatsiya vositasi orqali ifodalanadi.

Pauza orqali aytilgan fikr ta'sirchan bo'ladi, so'zlovchining emotiv holatini ko'rsatadi, shuningdek tinglovchini diqqatini tortish vazifasini bajaradi.

Pauza so'zsiz ya'ni noverbal holatda fikr ifodalaydi.

Masalan, o'qituvchi o'qib turgan misrasini birdan to'xtatdi, bu bilan tinglovchi hissiyotiga ta'sir etadi, natijada pauzali holat paydo bo'lib, tinglovchi diqqati tortiladi.

Pauza ham urg'u kabi nutqning sintagmatik bo'linishida asosiy intonatsion vosita hisoblanadi. U og'zaki nutqda jumalarning gapdagi ayrim so'z va so'z birikmalarining, gap qismlarining chegarasini, ular orasidagi munosabatni ko'rsatadi².

Yozma nutqda esa munosabatlarning qandayligini ko'rsatishda tinish belgilari yordam beradi. Shuning uchun tinish belgilariga qarab pauzaning qay darajada qisqa yoki cho'ziq ekanligini aniqlash muhim uslubiy ahamiyatga ega.

Masalan: It was very kind of you.

¹ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси, - Тошкент. "Фан". 1981. – Б. 58.

² Абдуллаев А. Маъно кучайтиришнинг фонетик усули // Узбек тили ва адабиёти. Тошкент. 1969, - № 2- Б. 55-58.

- Will it help, do you think.
- It'll be quite ready by tomorrow.
- He did nothing, of the sort
- That's the second time, you've asked me that.
- You should have told me.

Yuqoridagi misollarda vergul bilan ajratilgan qismda pauzalar qilingan yoki quyidagi dialoglarda ham pauzali holatlar ishlatilgan bo'lib, ular nutq oqimida uzilish ya'ni to'xtash bilan ifodalanadi.

- | | | |
|------------------------|---|-------------------------|
| We had a lovely trip. | - | Do you tell me about it |
| See you presently. | - | So long, old chap |
| Is that your notebook. | - | It is. |

Misollardan ko'rinadiki, pauza orqali berilgan fikrda ohang asosiy rol ni bajaradi, chunki har qanday fikrni ifodalashda pauza nutqiy holatni emas, nonutqiy (noverbal) informatsiya vazifasini bajaradi.

Fikr butunlay aytilib, tamom bo'lmaganligi hayajon bu harakatda ikkinchisiga to'satdan o'tishi va gap orasidagi tushirilgan so'zlar pauza bilan ajratiladi. Shu pauzani yozma nutqda ko'rsatish uchun tinish belgilaridan biri ko'p nuqtadan ham foydalanadi, Boshqacha aytganda, gap bo'laklari orasidagi to'xtash (pauza) shunga qarab belgilanadi.

Bu holatni ingliz va o'zbek tillarida keltirilgan quyidagi nutq parchasida yaqqol ko'rish mumkin:

Once upon a time there lived a young girl... called Cindrella. She had a step mother and two little step sisters, who were very unkind to her.

One day the prince invited them to a ball. The ugly sisters went... but Cindrella had to stay at home. As she was sitting by the fireside crying... her fairy God mother suddenly appeared before her.

Now you can go to the best said her fairy God-mother. But remember: you mustn't stay after midnight. At the palace Cindrella was so happy dancing with the prince that she forgot all about the time and she heard the clock. Strike twelve. As she ran a... way she lost one of her little glass slippers. The prince was determined to find her again, ... so he made the proclamation that he would

marry whoever could wear the slipper. It was soon discovered that the slipper would fit nobody... but Cinderella. So, the prince married her and they lived happily ... ever after ...(S. Maugham, Short stories p:46).

Yuqorida keltirilgan nutq parchasida pauza fikrning bo'lishi hamda kuchli hayajon, so'roq, taajjub, hayratlanish kabi munosabatlarni ifodalaydi. Ingliz tilidagi matnda bosh qahramon kechinmalari ifodalanib, ular to'xtash bilan nutq zanjirida bo'tinib-bo'linib talaffuz qilishni ko'rsatadi. O'zbekcha matnda esa ko'proq so'roq va taajjub ma'nolari pauza orqali beriladi.

Pauza bu holatda o'ziga katta stilistik yuk (nagruzkani) oladiki, adiblar chiroyli tarzda ko'rsatib berishga harakat qiladilar. Pauza intonatsiyaning bir komponenti ekan, unda intonatsiyaning temporal komponenti ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan biz vaqtni falsafiy hodisa deb qarab, intonatsiyaning vaqti ya'ni temporal komponenti muhim hisoblanadi¹. Temporal komponent ham o'zbek, ham ingliz tili intonatsiyasi uchun juda muhim bo'lib, ular boshqa qardosh tillar intonatsiyasidan farqlanadi.

Temporal komponent so'z urg'usining ham muhim komponentidir. Temporal komponent gapning kommunikativ tiplarini ham farqlaydi,

Masalan, so'roq gap buyruq gapga nisbatan davomli talaffuz qilinadi. Bunda pauza ham uslubiy vazifa bajaradi. Har bir qilingan pauzada ma'lum uslubiy xususiyatlar namoyon bo'ladi. Intonatsiyaning boshqa komponentlari ham tempga bog'liq. Masalan, bitta jumlaning talaffuzi uchun kelgan vaqt ham melodik, ham dinamik komponent uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, pauza tempga bog'liq. Haqiqatdan ham, pauzaning birdan bir bor narsasi uzunlik, chunki pauza qilgan o'rinda tovush yo'qoladi, melodik va dinamik harakatda bo'linish sodir bo'ladi, uzunlik esa davom etadi. Temporal cho'qqidan keyin pauzaning uchrashi ham fikrimizning dalilidir. Masalan: Borsak qayerda turamiz? Jumlasida eng uzun talaffuz qilingan bo'g'in (sak) ning uzunligi 116 ml, undan keyin 480 ml pauza uchraydi. Xuddi shu tartibdagi gaplarni tahlil qilaylik.

Ayam qani? Where is my mother? jumlasida jumlaning birinchi bo'g'inida logik urg'u tushgani sababli, u maksimal darajaga uzayadi. Shuningdek, bu

¹ Давидов МБ. Пособие по интонации английского языка.-М,1975

bo'g'inda dinamik cho'qqi (6 ml) ham uchraydi. Demak, temporal cho'qqi intonatsiyaning boshqa komponentlari cho'qqilari bilan hamkorlikda kelishi ham mumkin. Temporal cho'qqi faqat jumla boshida emas, balki jumla o'rtasida ham uchraydi

Boshqa odam?! Another man!

Yozma nutqda esa munosabatlarning qandayligini ko'rsatishda tinish belgilari yordam beradi. Shuning uchun tinish belgilari qo'yilgan o'rinlarda pauzaning qay darajada ekanligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Pauza gaplardagi ayrim bo'laklarda ham uchraydi. Bu so'z ichidagi pauzadir.

So'z ichidagi pauza turli bo'g'inlar tushib, bo'g'in tarkibini ta'kidlash yoki ikkilanish, xuddi shuningdek, ayrim so'zlarning to'liq talaffuzini ta'minlash maqsadida ham qo'llanadi.

Shunday qilib, pauza (to'xtam) gap ichida sintagmalar hosil qilib, uning maqsad va mazmuniga ta'sir qiluvchi fonostilistik vositadir. U og'zaki nutqda muayyan til (nutq) birliklarini ta'kidlash, ayirish, kuchaytirish, diqqatni tortish kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaydi. Pauza barcha janr asarlarida badiiy tasvirning muhim fonostilistik komponent bo'lib xizmat qiladi. Ba'zida turli emotsiyalar ifodalasa, prozaik asarlarda personaj larning ruhiy holatini, nutqiy xarakteristikasi va ichki tuyg'usini aks ettiradi va nutq zanjirida informatsiya urg'u bilan yaxlit holda akti yuzaga kelishida xizmat qiladi. Pauza o'ziga katta stilistik yuk (nagruzkani) olib, nutq ta'sirchanligini o'chirishda muhim fonostilistik vazifa bajaradi.

2.3. Urg' uning semantik- grammatik va uslubiy xususiyatlari.

Talaffuzda bir yoki bir necha bo'g'inlarni ajratib kuchli zarb bilan aytish urg'u deyiladi¹. Ko'p bo'g'inli so'zlarda bir yoki undan ortiq bo'g'inlarni ajratib aytish so'z urg'usi deyiladi. Agar so'z bir bo'g'indan iborat bo'lsa, so'z urg'usi bo'g'in cho'qqisini hosil qiluvchi unli tovushga tushadi. Fraza va gaplardagi

¹ Абдуазизов А., Аюб Ғуломов. Интонация хакида Аюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги// ТошДУ илмий мақолалар тўплами. - Тошкент, 2004., - Б. 9-11.

so'zlarning biror bo'g'inini ajratib talaffuz qilish ffaza urg'usi deyiladi. Frazalar urg'usi intonatsiyaning eng asosiy komponentlaridan biridir.

So'z urg'usi ma'nodor mustaqil so'zlarning zaruriy belgisi hisoblanadi. O'zbek, rus, ingliz va nemis tillarida ma'nodor so'zlardagi urg'u nutqda (ffazalarda) ham saqlanib qolishi mumkin. So'zlardagi bir yoki undan ortiq bo'g'inlarni ajratib talaffuz qilish turli artikulyatsion- akustik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Artikulyatsion jihatdan nafas kuchi, kuchli talaffuz va nutq paychalarining tebranishi so'zga urg'u qo'yishning asosiy vositalaridir. Akustik jihatdan so'z urg'usi intensivlik cho'ziqlik va tovushning asosiy toni yordamida amalga oshiriladi.

Tovush balandligi va cho'ziqlik urg'uning eshitilishidagi asosiy vositadir. Ko'rsatilgan vositalardan qaysilari bo'g'inni ajratib talaffuz qilishda asosiy ekanligiga ko'ra urg'u turlari farqlanadi. Agar talaffuz kuchi yoki intensivlik asosiy xizmatni bajarsa, dinamik, urg'u deyiladi. Asosiy tonning harakati yordamida amalga oshiriluvchi urg'u musiqiy urg'u deb ataladi. Bo'g'inning cho'ziq talaffuzi urg'uda asosiy bo'lsa, miqdoriy urg'u cho'ziqlik yoki kvantitativ deyiladi. Ba'zan tillarda urg'uning ko'rsatilgan vositalari birgalikda harakat qiladi va bir yo'la kuch va ton urg'usi mavjud bo'ladi. Masalan, norvej, dat, island, shved til lari shunday urg'uga ega. Rus, o'zbek, ingliz, nemis tillarida dinamik urg'u, grek tilida- miqdoriy urg'u, yapon, dungan, koreys, xitoy, serb tillarida musiqiy (ton) urg'u bor.

Urg'uning o'rniga ko'ra turg'un va turg'un bo'lmagan urg'u farqlanadi. Masalan, fin va chex tillarida urg'u doim so'zning birinchi bo'g'iniga, fransuz va ko'pgina turkiy tillarda so'zning oxirgi bo'g'iniga, polyak tilida esa, orqadan ikkinchi bo'g'inga urg'u tushadi. Turg'un, lekin har xil bo'g'inlarga tushuvchi urg'u, rus, ingliz va italyan tillarida mavjud. Biroq rus tilida urg'u ko'chma va erkin bo'lib, so'z formasining o'zgarishi bilan urg'u o'z o'mini o'zgartiradi.

Har bir tilda chet tillardan kirgan so'zlar o'z urg'usini saqlab qolishi yoki shu qabul qilgan tilning qoidalariga asosan talaffuz etilishi mumkin. Odatda urg'uli va ochiq bo'g'inlardagi tovushlar urg'usiz va yopiq bo'g'inlardagi tovushlarga qaraganda cho'ziqroq talaffuz qilinadi. So'zning fonetik alohidaligini urg'uli va

urg usiz qismlarning, xususan bo'g'in hosil qiluvchi elementlarning ulanishi yordamida amalga oshiradi. Urg'u yordamida so'zning biror bo'g'ini faqat ajratib aytilmay, balki uning boshqa qismlari va urg'usiz bo'g'inlari urg'uli bo'g'in atrofiga birlashtiriladi. Urg'u prosodika yoki supersegmental fonetikaning asosiy elementlaridan biridir.

So'zga nisbatan yuqori birlik sifatida nutq jarayonida so'zlovchi tomonidan biror ma'noni bildirish maqsadida bo'linuvchi qism sintagma deyiladi.

Sintagmaning fonetik belgisi deb sintagmatik urg'u tushuniladi. Bunday urg'u odatda sintagmadan oxirgi elementga tushadigan va u sintagma birlashgan so'zlarning ma'no munosabatlari bilan bog'lanadi.

Misol: Katta akam / traktor ishlab chiqaradigan zavodda / yetti yildan beri / yaxshi mehnat qilmoqda. Bu fraza to'rt stagmaga bo'linadi.

So'z bo'g'inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishiga, shuningdek, ayrim so'zlarning ma'no va talaffuzini belgilab beruvchi fonetik hodisaga urg'u deyiladi. Urg'u unli fonemalarga tushadi. O'zbek adabiy tilida urg'u ko'pincha oxirgi bo'g'inga tushadi. O'zakka qo'shimchalar qo'shilganda ham urg'u oxirgi bo'g'inga ko'chaveradi.

Masalan: paxta, paxtakor, paxtakorlar. Biror tovushning urg'u olishi nutq organlarining harakati va nafas chiqish kuchiga bog'liq.

Masalan: xiz-mat-chi, erkin va bog'liq, so'z va gap urg'usi

Urg'u 4 tomonlama tasnif qilinadi:

Urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushishiga ko'ra 2ga bo'linadi:

1. Erkin urg'u
2. Bog'liq urg'u.

So'z bo'g'inlaridan bo'ginlarga ko'chib uning ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan urg'u erkin urg'u deyiladi.

Masalan: Yuklama- ot, yuklama- fe'l, qatlama- fe'l, suzma- ot, suzma- fe'l. So'z oxiriga tushgan urg'u bog'liq urg'u deyiladi: dala- dalaga

2. Urg'u sifatiga ko'ra ikki xil:
 1. Dinamik urg'u
 2. Musiqaviy urg'u

Havo oqimining kuchi bilan ifodalangan urg'u dinamik urg'u deyiladi. Bunda urg'uli bo'g'in kuchliroq ovoz bilan aytiladi. Rus, o'zbek, tojik va boshqa tillar shu urg'u bilan ish ko'radi.

Ton ohangining bir xil chiqishi bilan ifodalangan urg'u musiqaviy urg'u deyiladi. Bunda urg'uli bo'g'in baland ohang bilan aytiladi. Xitoy, Yapon, Serb, Litva tillari bu urg'u bilan ish ko'radi.

Gapning mazmunini belgilashda biz musiqaviy urg'udan foydalanamiz. Urg'uning tushish o'rniga ko'ra turi 2 xil:

1 So'z urg'usi

2 Mantiqiy urg'u

So'z bo'g'inlaridan biriga tushib, uning ma'no va talaffuzni belgilab beradigan urg'u so'z urg'usi deyiladi¹.

Olma- ot va fe'l.

Gapdagi so'zlardan birontasi boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan ajratib aytilishi mantiqiy urg'u deyiladi.

Gapda mantiqiy urg'u qaysi so'zga tushgan bo'lsa, so'zlovchi tinglovchining diqqatini shu so'zga tortmoqchiligini bildiradi.

Nutq jarayoni uzviy bir zanjirdan iborat. Ana shu zanjirni hosil qilishda ikki xil birlik ishtirok etadi: tovush (fonema) —bo'g'in, so'z —segment va shu birliklar asosida hosil bo'luvchi urg'u, ohang kabi supersegment birliklar. Bu birliklar bir biri bilan chambarchas bog'liq. Nutqda segment birliklar birlamchi hodisa bo'lishiga qaramay, nutq jarayonida supersegment birliklar segmentlarga ma'lum darajada ta'sir qiladi, ularning ma'lum darajada o'zgarishga olib keladi. Ana shunday segmentga ta'sir qiluvchi supersegment birliklardan biri urg'udir. U supersegment birlik bo'lsada, segmentga, jumladan unli tovushlarga ta'siri kuchli. Unlilarning sifat xususiyatlari urg'u bilan chambarchas bog'liqdir.

Urg'uli bo'g'inning unlisi kuchli aytiladi, aniq talaffuz qilinadi: o'z borligini (miqdor va sifat xususiyatini) to'la saqlab qoladi? Urg'uning fonetik tabiati juda murakkab².

¹ Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.-Т.: “Ўқитувчи” 1985.

² G'ulomov A. O'zbek tilida urg'u, Toshkent. 1947. -B.23.

Tilning qaysi sathidagi birliklarga aloqador bo'lishiga ko'ra urg'u quyidagi turlari bor:

1) Fonetik tabiatiga ko'ra:

a) Dinamik (zarb) urg'u — so'z tarkibidagi bo'g'inlarning birining ayniqsa, unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilishga asoslanadi. O'zbek tili urg'usi dinamik urg'u hisoblanadi, ya'ni so'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining ayniqsa unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilinishiga asoslanadi. O'zbek tili urg'usi dinamik urg'u hisoblanadi, ya'ni so'z tarkibidagi urg'uli bo'g'in zarb bilan aytiladi.

b) Kvantativ urg'u - urg'u bo'g'indagi unlining cho'ziq talaffuz qilinishi bilan xarakterlanadi.

v) tonik (musiqiy) urg'u. bunday urg'u tovush tonining ko'tarilishi va tushish ohangiga bog'liq bo'ladi, Xitoy, Yapon, Serb tillarida musiqiy urg'u ishlatiladi.

2) Tushish o'rniga ko'ra: bog'langan va erkin urg'u.

Bog'langan urg'u doim so'zning biror bo'g'iniga tushadi.

Masalan: turkiy tillarda oxirgi bo'g'inga, venger va chex tillarida birinchi bo'g'inga tushadi.

Urg'u orqali ma'no o'zgarishda ohang asosiy rolni o'ynaydi. Bunda yangi so'z hosil bo'lmay, ya'ni so'zning denotativ ma'nosi o'zgarmay, turli konnotativ ma'nolar hosil bo'ladiki bu uslubiy rang-baranglikni vujudga keltiradi.

Chog'ishtiring: so'zlayman (to'g'ri, odatdagicha anglatish) so'zlayman (ta'kid, uqtirish, yalinish), so'zlayman (qat'iyat), kesildi (to'g'ri, odatdagicha anglash)-kesildi (kesatish)- kesildi (uqtirish) kabilar.

Urg'uga supersegment (ustama) hodisa sifatida qarash lozim ekan, u bevosita uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Urg'uli bo'g'inining unlisi kuchli aytiladi, aniq talaffuz qilinadi. Urg'uning fonetik tabiati juda murakkab; u akustik jihatdan ko'p komponentlidir. Bu uning temporalligida (vaqtincha) musiqiylikda ko'rinadi. Ikkinchidan, urg'uli bo'g'inda, urg'usiz bo'g'inlarning akustikasi past bo'ladi¹.

¹ Аюб Ғуломов. Ўзбек тилида ургу. 1947. —Б. 32

Ingliz tilida “sentence stress” deb ataluvchi gap urg’usi ham mavjud. Umuman olganda jumla urg’usi intonatsiyaning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Urg’uning bu turi ikkala tilda ingliz va o’zbek tillariga xosdir.

Ammo ular bir-biridan farq qiladi. Ingliz tilida jumla urg’usi chuqurroq o’rganiladi. Bunda jumla urg’usi 3 turga bo’lib o’rganiladi:

1. Normal stress
2. Logical stress
3. Emphatic stress

Ilmiy adabiyotlarda urg’u haqida fikr yuritilsa, odatda, so’z urg’usi nazarda tutiladi. Ingliz tilida so’z urg’usi uch tomonlama tasniflanadi.

1. Primary stress (birinchi darajali urg’u)
2. Secondary stress (ikkinchi darajali urg’u)
3. Weak stress (Sust urg’u)

Urg’u va uning semantik grammatik xususiyatlarini tadqiq qilish o’zbek va ingliz olimlari tomonidan juda ham o’rganilgan.

Talaffuzda bir so’z ajratilib, urg’u berib aytiladi. Bu ham odatda ovozning ko’tarilishi, cho’ziqlikning ortishi yoki intonatsion taktning kuchayishi kabi fonetik vositalar orqali bo’g’in yoki so’zning ajratilishi natijasida so’z urg’usi va gap urg’usi hosil bo’adi.

So’z urg’usi semantik - stilistik tomondan so’z ma’nosi va talaffuzining to’g’ri belgilashga xizmat qiladi.

Mustaqil ma’noga ega bo’lgan har qanday so’z urg’u oladi. Bir bo’g’inli so’zlarga, odatda, birinchi darajali urg’u tushadi.

Masalan: hat, make, sit, doll.

Ko’p bo’g’inli va qo’shma so’zlarda havo oqimining kuchli bosimini qabul qilgan asosiy urg’u bosh darajali urg’u va o’sha so’zning o’zak negizida qolgan ikkinchi darajali urg’u bo’ladi.

Bosh urg’u ingliz tilida asosan so’z o’zagiga tushadi. O’zbek tilida esa oxirgi bo’g’inga tushadi.

Ko’p bo’g’inli so’zlarda bosh urg’u va ikkinchi darajali urg’u ishlatiladi. She’riyatda musiqiylikni hosil qiluvchi vositalardan biri emfatik urg’udir.

Emfatik urg'u tushgan bo'lak boshqalarga qaraganda balandroq, cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qofiyaga emfatik urg'uni yuklash uning xushohangini oshiradi.

Ingliz tilidagi quyidagi rifmovkada qofiyadosh so'zlar kelib, ularga urg'u tushishi natijasida xushohanglik kuchli ifodalangan:

One, two buckle my shoe; three, four, shut the door.

Five, six, pick up steaks ;

Seven, eight, nine, ten a good fat, hen eleven, twelve, who will delve?

Thirteen, fourteen, maids a courting.

Fifteen, sixteen Maids a kissing Seventeen, eighteen,

Maids waiting;

Nineteen, twenty My stomach's, empty.

Urg'uning fonetik tabiati juda murakkab. Birinchidan, u akustik nuqtai nazaridan ko'p komponentli.

Bu uning temporalligida, musiqiyligida dinamikligida ko'rinadi. Ikkinchidan, urg'uli bo'g'inda akustik cho'qqilar yuqori bo'ladi, urg'usiz bo'g'in akustikasi pastroq bo'ladi.

So'z tarkibidagi urg'usi bo'g'inning unlisi kuchsiz talaffuz qilinadi, ma'lum darajada reduksiyaga uchraydi. Unlining urg'uli holati bilan urg'usiz holati bir-biridan farqlanadi. Urg'u so'zining qaysi bo'g'iniga tushishiga qarab urg'usiz bo'g'indagi unliga miqdor va sifat nuqtayi nazaridan kuchli ta'sir qiladi. Segment (tovush) supersegment birlik (urg'udan) uzoqlashgan sayin uning miqdor va sifat xususiyatib kamaya boradi.

Urg'u supersegment bo'lsada segmentga ta'siri kuchli bo'ladi. Urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushishiga qarab sifat nuqtai -nazaridan kuchli ta'sir qiladi. Segment (tovush) supersegment birlik (urg'u)dan uzoqlashgan sayin uning miqdor va sifat xususiyatlari kamayib boradi. Urg'u so'zning tovush materiyasining murakkab elementi sifatida shakllanadi.

Tilning tovush qurilishidagi o'ziga xos xususiyatlari so'zning strukturasi, ya'ni, tovush orqali so'z uyushtirishda ham bilinadi. Bu struktura dastavval

urg'u bilan belgilanadi va so'z, bo'g'in, tovush tashkil qiluvchi dinamik ton, tembral xususiyatlarning o'zaro munosabatidan tashkil topadi¹.

Urg'u so'zning tovush materiyasining murakkab elementidir. O'zbek va ingliz tillarida struktura fizik jihatdan asosiy va obertonlarning balandligi o'rtasidagi muayyan nisbat bilan belgilanadi. Tilda urg'u shu tilning ichki qonunlariga muvofiq turli vazifalarni o'taydi.

Agar o'zbek tili uchun urg'uli bo'g'inda asosiy tonning ko'tarilishi ahamiyatga ega bo'lsa, ingliz tilida urg'u so'zning ma'nosiga darhol ta'sir ko'rsatadi. Jumladan: ingliz tilida "chair" so'zidan urg'u birinchi bo'g'indagi unlisiga tushsa, "stul" ma'nosini ikkinchi bo'g'indagi "i" unlisiga urg'u tushganda "rais" kabi ma'nolarni beradi.

Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bir xil akustik vositalari o'zidan turli tillarda turlicha foydalaniladi, ular turli tillarda turli ma'no beradi, ya'ni, har qayerda gaplashuvchi kishi ularni shu kankret tilning fonetik sistemasi asosida qabul qiladi. O'zbek tilida bo'g'inning cho'ziqligi urg'u effektini hosil qilishda tebranish tezligiga fizik intensivlikka nisbatan uncha ahamiyatli vosita emas, ammo ingliz tilida bu hoi aksinchadir.

So'z oxirida kelgan unlining boshqa hamma hollardagi urg'uli unlidan cho'ziqroq aytilishi unli cho'ziqligining o'zgarishi urg'u bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Urg'usiz unli urg'uli ta'siridan holi bo'lmaydi, chunki unlining cho'ziqligi urg'uning o'rniga va urg'uli bo'g'inning so'z oxirida bo'lishiga bog'liq.

Unlining cho'ziqligi so'z tarkibidagi boshqa unlilarning sifatidan qat'iy nazaridan, urg'u hosil qilishda eng muhim momentlaridandir.

Shunday qilib, ma'no kuchaytirishda urg'uning ahamiyati katta bo'lib, tildagi supersegment fonetik vositalardan biridir.

Urg'uning vazifasi, so'zning birligini ta'minlash va so'zlarning bir-biridan prosodik farqni ko'rsatuvchi differtsional belgidan iborat.

¹ Абдуллаев А. Ҳозирги ўзбек тилида маъно кучайтиришнинг фонетик ва морфологик усули, филол. фан. номз. дисс. Тошкент, 1970. – Б.122.

Urg'u supersegment vosita deb qaralar ekan, uning uslubiy ahamiyat kasb etishi haqida to'xtalish lozim. Chunki urg'uli bo'g'inda unli tovush kuchli aytiladi, aniq talaffuz qilinadi.

Uning tabiati juda murakkab bo'lib, u akustik jihatdan ko'p komponentli hodisadir. urg'uli bo'g'inda akustik cho'qqilar yuqori bo'ladi. Bu uning temporalligida yaqqol ko'rinadi.

A.G'ulomov "O'zbek tilida urg'u risolasi"da urg'uning nazariy asoslarini faktik misollar bilan ko'rsatib bergan bo'lsa, Antipova kitobida so'z urg'usi va gap urg'usi va gap urg'usi intonatsiya bilan bog'lab, tushintirilgan va har qaysi gap tiplarida intonatsiyaning vazifasi ko'rsatilishi bilan urg'u olgan so'z yoki jumla ma'lum ekspressivlikni hosil qilishi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Urg'u so'zning semantik va grammatik jihatdan farqlashga xizmat qiladi. "Eshituv (orqali) usuli bilan xulosa chiqarganiga qaramay, ko'p bo'g'inli so'zlardan urg'uning darajalanishi, urg'usiz bo'g'inda unlilarning diduksiyanlanishi urg'u olmaydigan qo'shimchalar va ularning sabablari yuzasidan bayon qilingan fikrlar keyinchalik eksperimental fonetika bergan materiallar ham to'la tasdiqlaydi", - deb yozadi professor A. Nurmonov.

Urg'u keng qamrovli fonetik vosita bo'lib, unda ifodalangan konnotativ ma'noni o'rganish ham bugungi tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. H. Yo'ldosheva o'zining "So'roq yuklamalari va jumla urg'usi" maqolasida, N. Qobilova esa "Ingliz va o'zbek tillarida so'z urg'usi" ilmiy maqolalarida bu haqida atroflicha fikr yuritganlar.

So'zdagi urg'uning o'rin almashishi bilan bog'liq bo'lgan bu hodisalarda sitilistik bo'yoqdorlik ham vujudga keladi¹.

Yuqorida qayd qilinganidek, so'z urg'usi so'zning urg'u tushgan bo'g'ini boshqa bo'g'inlarga nisbatan boshqacha talaffuz qilinishi bilan farqlanadi.

Bu farqli talaffuz tovush kuchi, tovush balandligi, tovush cho'ziqligi, sifati kabilarda kuzatiladi.

Agar ko'makchi fe'llarga urg'u tushsa, ma'no darajasi kuchliroq bo'ladi.

a: - Does it matter?

¹ Гайдучик. С.М. Фоностилика - как один из разделов фонетики // Интонация. - Киев, 1978 -С.35-41.

b: - Does it matter?

a: - 'Is it going to be fine.

b: - Is it going to be fine.

Shuningdek logik urg'u bilan tartibning munosabatida ya'na shunday holatlar ham bor.

Logik urg'u kesimda yoki uning oldidagi bo'lakda bo'lsa, odatdagi tartib o'zgarmaydi. Sifatlovchi logik urg'u olsa, odatda tartibni o'zgartirib bo'lmaydi.

Logik ahamiyatlilikni emotsionallikni intonatsiya va tartib yordami bilan berishda yana bir xususiyat bor.

Logik urg'u olgan so'zdan keyin ham o'sha so'zdan avval ham o'z bek tilda "hatto", ingliz tilida "so" so'zlari keltirib, mazmun, ifoda kuchaytiriladi.

- He is a 'handsome boy.

- No, he is not only 'handsome but attractive

- Oh, you have praised him but I mean that he is so attractive I'm never seen such a smart boy!

Yuqoridagi qisqa dialogda insonning go'zallik ifodalashda sinonimik qatordan foydalanilgan, shu bilan birga mazmun va gapning ifodasi birgina **attractive** orqali emas, balki undan oldin so keltirilgan. **So** esa ma'noga ta'sir etib, yanada mazmunni kuchaytirgan **handsome** hamda **attractive** so'zlariga logik urg'uning berilishi ifoda ma'nosining yanada ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Shunday qilib, logik urg'u natijasida sodir bo'ladigan ellipsislar nutqda ayrim bo'laklarni bo'rttirishga, ta'kidlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, logik urg'u natijasida sodir bo'ladigan ellipsislar nutqiy metonimiya va metaforani yuzaga keltiradi. Bu hoi badiiy tasvimi ta'sirchan va jozibali qiladi. Bu o'rinda uslubiy xususiyatga ko'ra emfatik urg'u ta'sirchanligi bilan bog'liq holatlar haqida ham to'xtalish zarur.

Logik urg'u natijasida so'zning ma'nosi o'zgaradi.

a) Ann loves flowers semantik maydon markazida - loves, flower so'zlari turadi.

b) Ann, loves, flower semantik maydon markazida - Ann.

c) Ann 'loves, flower semantik maydoni markazida - loves.

Logik urg'udan tashqari emfatik (hayajon) urg'usi ham mavjud bo'lib, gapning biror bo'lagi yoki bo'laklariga so'zlovchining kechinmasi, hayajon, subyektiv munosabati kabilarning yuklatilganligini ko'rsatuvchi intonatsion qismidir. Lining logik urg'udan farqi shundaki, logik urg'u tinglovchi diqqati ajratilgan qismi ko'rsatadi. Emfatik urg'u esa so'zlovchining o'z subyektiv munosabati qaratilgan bo'lakni ayirib, ta'kidlab ko'rsatish vazifasini o'taydi. Logik urg'u gapda bir bo'lakka emfatik urg'u esa bir necha bo'lakka yoki gapning ma'lum sostaviga ham tushishi mumkin.

Logik urg'uda tovush kuchi emfatik urg'uda esa tovush cho'ziqligi asosiy o'rinda turadi.

Emfatik urg'u ko'proq belgi bildiruvchi so'zlarga tushadi yoki shu so'zning biror bo'g'ini yoki leksik urg'uli bo'g'inida aks etadi.

Emfatik urg'u undalma, buyruq bildiruvchi so'z; vokativ gaplarga ko'proq tushadi. Undov gaplarning hammasi emfatik urg'uli bo'ladi. Ulardagi tovush balandligi ham yuqori bo'ladi.

She'riyatda musiqiylikni hosil qiluvchi vositalardan biri emfatik urg'udir. emfatik urg'u tushgan bo'lak boshqalarga qaraganda balandroq, cho'ziqroq talaffuz etiladi.

Xulosa qilganda, urg'u semantik-grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan fonetik vositalardan biridir. Urg'u vositasida so'zning leksik va grammatik ma'nosi o'zgaradi. Bunday o'zgarish tufayli so'z va gapda qator konnotativ ma'nolar hosil bo'ladi. Urg'u vositasida paydo bo'lgan bunday ma'nolar badiiy tasvirning jonli obrazli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Umumiy xulosalar.

1. Konnotatsiya til va nutq birliklari ma'no tarkibining ajralmas qismi bo'lib, ular ifodalagan asosiy denotativ ma'noni to'ldiradi va turli darajada qo'shimcha emotsional-ekspressivlikni hosil qiladi.

2. Fonetik vositalarda ifodalanayotgan konnotativ ma'nolarning jozibadorligi tilning turli sathlarida o'zaro aloqadorlikda ro'yobga chiqadi.

3. Konnotativ ma'no segment va supersegment fonetik vositalarda ifodalanishiga ko'ra farqlanadi. Miqdor va sifat jihatdan "qo'shimcha ma'no bo'yog'i" supersegment elementlarda kuchli ifodlalanadi.

4. Nutqda so'zlardagi konnotativ ma'noning ro'yobga chiqishida nutq tovushlarning paradigmatic va sintagmatic aloqasi muhim hisoblanadi.

5. Intonatsiya og zaki nutqqa xos bo'lib, nutq melodikasi va ritmi, nutq tizimi va tembri, logik urg'u kabilardan tashkil topgan alohida bir tizimdir.

So'zlashuv nutqi konnotativ ma'nolarga boy intonatsiya bilan ajralib turadi.

6. Supersegment fonetik vositalarning har biri o'ziga xos semantik—grammatik xususiyatlarga ega. Fonostilistik jihatdan intonatsiyaning logik-

ekspressiv hamda emotsional-ekspressiv ko'rinishlari ahamiyatli bo'lib, ular so'zlovchining ruhiy holati, kayfiyati hissiy tuyg'usi, sevisht, hayrat, ajablanish, erkalash, qo'rqinch kabi qator konnotativ ma'nolarni ifodalaydi.

7. Pauza gap ichida sintagmalar hosil qilib, uning maqsad va mazmuniga tasir qiluvchi fonostilistik hodisadir. U og'zaki nutqda muayyan til birliklarini ta'kidlash ayirish, araz, kuchaytirish, diqqatni tortish kabi ma'nolarni ifodalaydi.

8. Urg'u supersegment vosita bo'lib, u semantik-grammatik hamda uslubiy xususiyatlarga egadir. So'z urg'usi semantik-uslubiy tomondan so'z (urg'usi) ma'nosi va talaffuzini to'g'ri belgilashda xizmat qiladi. Ba'zan so'z bo'g'inlarga tushgan urg'i/uning denotativ ma'nosiga ta'sir qilmay, balki konnotativ ma'noni o'zgartiradi.

Nutq zanjirni hosil qilishda uch supersegment element intonatsiya, pauza, hamda urg'uning bir vaqtda sodir bo'ishi kuchli konnotativ ma'no ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Ijtimoiy- siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” - T.; “Ma’naviyat”, 2008.
2. Chet tillarni o’rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risidagi PQ18/75 qarori. 2012.10-dekabr. “Marifat” gazetasi №99.-B.83.

II. Ilmiy adabiyotlar

1. Abduazizov. A. O’zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. - T.; "O’qituvchi", 1992. -B.134
2. Abduazizov. A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. - T.; “Shapq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2010. -B.175
3. Abduazizov. A. Fonostilistik vositalarning o’rganilishiga doir. “O’zbek tili va adabiyoti”. - T.; 1985. №2. 24-28 -B.
4. Abdullaev. A. Ma’no kuchaytirishning fonetik usuli. “O’zbek tili va adabiyoti”. - T.; 1969. №2. 55-58 -B.
5. Abdullaev. A. O’zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - T.; “Fan”, 1983. -B.88
6. Abduraxmonov X., Mahmudov N. So’z estetikasi. -T.; “Fan”, 1981. -B.58
7. Abduraxmonov G’. Stilistik normalar haqida. “O’zbek tili va adabiyoti”. - T.; 1969. №6. -B.50-52.
8. Азнаурова Э.С. Очерки о стилистике слова. -Т.; “Fan”, 1973.

9. Айдаров В.Н. Фонетические средства стилистики. —Л.; 1971. -С.359-364
10. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. -М.;”Наука”, 1974. -С.48
11. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. -М.; “Просвещение”, 1990. -С.209-211
12. Астафьева И.М. Виды синтаксических повторов, их природа и стилистические использования. -М.; 1968. -С.14-16
13. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.-М.;1966. -С.180
14. Boboxonova L.T. Ingliz tili stilistikasi. - T.; “O’qituvchi”, 1995. -B.140
15. Виноградов В.В. Стилистика Теория поэтической речи. Поэтика. – М.;”Наука”. 1963. -С.25
16. Вишневская Г.М. Английская интонация. -Иванова. 1985. -С.17
17. Гайдучик С.М. Фоностилика как один из разделов фонетики. Интонация. -Киев 1978. -С.35-41
18. Гайдучик С.М. Фоностилистический аспект устной речи. Автореф. дисср.д-ра филол.наук. -Л.; 1973. -С.45
19. Говердовский В.И. История понятия коннотации. -М.; ФН. 1983. №2. С.81-86
20. Голуб Б. Стилистика современного русского языка. Лексика, фонетика.-М.; 1976. С-207
21. Doniyorov X., Yo’ldoshev B., Adabiy til va badiiy stil -T.; “Fan”, 1988. - B.70-77
22. Jo’rayev B. O’zbek tilida tovushlarning o’rin almashinishi (Metoteza hodisasi). “O’zbek tili va adabiyoti”. - T.; 1968. №5. -B.31
23. Yo’ldosheva X. So’poq garlarda pauza. “O’zbek tili va adabiyoti”. - T.; 1978. №3. -B.29
24. Yo’ldosheva X. Intonasiya xususida. Gumanitar va ijtimoiy iqtisodiy fanlarning dolzarb masalalari. - T.; 2006. -B.127 -129
25. Yo’ldosheva X. Pauzaning lingvistik tahlili. Ta’lim tizimida ijtimoiy - gumanitar fanlar. - T.; 2007. №4. -B.94-96

26. Кантер Л.А. Системный анализ речевой интонации. -М.; 1978. -С.92-114
27. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtorefarati. - T.; 1993. -B.50
28. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. -T.; "Fan", 1990 -B.18-24
29. Mamatov J. Supersegment birliklarning segmentga ta'siri. "O'zbek tili va adabiyoti". — T.; 2005. №4. -B.40
30. Mahmudov A. Intonasiya va prosodiya haqida. "O'zbek tili va adabiyoti". T.; 1977. № 6.
31. Mirtojiev M. Tovushlardagi ma'no. T.; "O'zbekiston". 1982. -B.24
32. Oripova A. Notiqlik nutqining fonetik vositalari. "Til va adabiyot ta'limi". - T., 2001. №4. -B.36-38
33. Solixo'jaev S. Emosionallikni ifodalovchi vositalar. "O'zbek tili va adabiyoti". - T.; 1978. №5. -B.44-46
34. Торсуев. Г.П. Интонация и смысл высказывания. -М.; 1965. -С.87
35. Трубецкой В.А. Основы фонологии. -М.; 1960. -С.210
36. Цеплитис Л.К. Анализ речевой интонации.-Рига.1974. -С.86
37. Shoabduraxmonov Sh. Tovush almashinishi (Metateza). "O'zbek tili va adabiyoti". - T.; 1961. №5. -B.43-45
38. Shomaqsudov A. O'zbek tili stillari haqida. ToshDU ilmiy asarlari. Filologik tadqiqotlar.-T.;1970. -B.54
39. Юлдашева Х. Интонация вопросительных фраз современного узбекского литературного языка, (экспериментально-фонетическое исследование). Автореф. канд. дисс... филол. наук. -Т.; 1988. -С.21
40. G.Yaxshieva. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. -T.; "Fan", 1996. -B.36
41. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi.-T.; "O'qituvchi", 1985. - B.104
42. Qilichev E. Intonasiya haqida mulohazalar. "O'zbek tili va adabiyoti". - T.;2001.№1. -B. 63-65
43. Qo'ng'urov P. O'zbek tilining tasviriy vositalari.-T.;"Fan", 1977. -B.34

44. Qo'ng'urov P. O'zbek adabiy tilida tasviriy so'zlarning fonetik xususiyatlari. "O'zbek tili va adabiyoti".-T.;1961. -B.59-61
45. G'ulomov A. O'zbek tilida urg'u. ,-T.; 1947. -B.32
46. Haydarov A. Intonasiyaning uslubiy xususiyatlari. BuxDU ilmiy axborotnomasi. 2006. -B.69-72
47. Haydarov A. Fonetik o'zgarishning vazifasi. "O'zbek tili va adabiyoti". -T.; 2006. №3. -B.75-77
48. Haydarov A. Badiiy uslubning fonetik vositalari. "O'zbek tili va adabiyoti". -T.; 2007. №2. -B.36-38
49. Haydarov A. Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi. Nomzodlik dissertasiyasi...avtoreferati.-T.;2009. -B.21
50. Haydarov A. Tovush simvolizmi. Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari. SamDU to'plami. 2007. -B.100-102
51. Hojiyev "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati "-T.: "O'qituvchi "1985. -B.144

III Badiiy adabiyotlar

1. I.L.Voynich. "The Gadfly " Publishers house. Moscow 1965. P.-66
2. I.L.Voynich "So'na" Davr Press. 2012
3. S.Mayham "Short stories" –M. Publishing house 1978.
4. A.Qodiriy. "O'tgan kunlar" –T. Yoshlar nashriyoti 2014
5. Sh.Drayzer. "Baxti qaro kerri" –T. Yoshlar nashriyoti 2010